



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika kafedrası

Aminova Vasilaning

***“5140800 “Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi bo’yicha
bakalavr darajasini olish uchun***

***“Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur rivojlanishining
psixologik xususiyatlari” mavzusida yozgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

o'qituvchi G.Eshmurodova

“Himoyaga tavsiya etildi”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ dots. Sh.Nurullayeva

“ _____ ” 2013 yil

Qarshi shahri, 2013 yil

Mundarija:

Kirish.....	3-5
 I bob Tafakkur va uni psixologiya fanida o'rganilishi.	
1.1. Tafakkur to'g'risida umumiy tushuncha.....	6
1.2. Psixologiya fanida tafakkur muammosining o'rganilishi.....	25
 II bob. Maktabgacha yoshdagi bolalar taffakuri rivojlanishining psixologik xususiyatlari	
2.1 Maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyotiga umumiy tavsifnoma.....	30
2.2. Taffakurning bolalar rivojlanishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari.....	42
 Xulosa.....	 51
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	 53

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Biz uchun istiqlol-millatimiz, mamlakatimizning jahonda obro' e'tibori, shon-shavkatini ko'taradigan sog'lom avlodni, har jihatdan barkamol va fidoyi o'g'il-qizlarni tarbiyalash.

Yurtboshimiz I.A. Karimovning "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz" asarida "Mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs—komil insonni tarbiyalashdan iborat" ekanligiga alohida e'tibor qaratganlar. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida teran tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga etkazishga alohida e'tibor berilmoqda. Davlatchiligimizni mustahkamlash, buyuk kelajagimizning poydevorini qurish, milliy ongimiz va faxrimizni yuksaltirish, jahon hamjamiyatida munosib o'rnimizni egallashdir" (Karimov I.A. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin"- "O'zbekiston", 1994. 283-284 b.). Tafakkurni o'rganish va uni o'stirish umuminsoniy tarbiya nazariyasi va tajribasida muhim ahamiyatga ega. Chunki yangicha tafakkur qilish shaxsda bilimlar, tushunchalar, obrazlarni shakllantirish bilan birga e'tiqod, ongli intizom, tajriba faoliyatini ishlab chiqadi. Zero, mustaqil tafakkur — barkamol insonlarni shakllantiruvchi muhim omil deb qaralmoqda.

Shu jihatdan qaraganda bitiruv malakaviy ish uchun tanlangan mavzuimiz ayni dolzarbligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Biz malakaviy ish mavzusi mazmunini har jihatdan to'la yoritish uchun dastlab, ishimizning maqsad, vazifalarini, predmeti va ob'ektini, metodologik asosini aniqlab oldik. Mavzuga dahldor manbaalarni to'plash, umumlashtirish, tahlil qilish, maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkuri shakllanishining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali mavzu mazmunini ochib berishga va bolalar taqakkurini shakllantirishga oid tavsiyalar yaratishga harakat qildik. Zero shakllanib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ma'suliyat bilan yondashish, to'g'ri ta'lim tarbiya usullarini tanlash, amalda unumli qo'lash, foydalanish, nafaqat bolalar tafakkurini, balki ularni barcha bilish jarayonlarini har tomonlama o'sib, rivojlanishib borishiga yordam

beradi.

Jamiyatda kechayotgan islohotlarda, o'zgarishlarda insonning teran tafakkuri muhim o'rin tutadi. Insonning tafakkuri, shaxsning kamoloti jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, shart-sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat, davlat va jamiyat taraqqiyoti insonning mustaqil teran tafakkuriga asoslanadi.

Ma'lumki, bolaning psixik taraqqiyotida birinchi navbatda tashqi muhit ta'sir etsa, ikkinchi navbatda bolaga uzoq muddat davomida tizimli ravishda beriladigan ta'lim tarbiya kuchli ta'sir etadi.

Tafakkurni o'rganish va uni o'stirish umuminsoniy tarbiya nazariyasi va tajribasida muxim ahamiyatga ega. Chunki yangicha tafakkur qilish shaxsda bilimlar, tugshunchalar, obrazlarni shakllantirish bilan birga e'tiqod, ongli intizom, tajriba faoliyatini ishlab chiqadi.

Teran tafakkurga ega avlodlar shakllanib borsa, jamiyat ravnaq topa boradi. Teran tafakkurli avlodlarsizsiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlanishining o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining **vazifalari:**

-Inson aqliy faoliyatining eng oliy shakli tafakkur jarayoni, tafakkur va nutqning maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanishining psixologik xususiyatlari haqida manbalar to'plash umumlashtirish va tahlil qilish

- Tadqiqotni yo'lga qo'yish uchun muayyan vositalarni saralash;
- Tajriba o'tkazish uchun metodikalar, maxsus materiallar ishlab chiqish
- To'plangan ma'lumotlar yuzasidan ham sifat ham miqdor tahlilini amalga oshirish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalardir.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur rivojlanishining xususiyatlari, omillari, tashqi va ichki sharoitlari kechishi jarayonidir.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari:

Tabiiy sharoitlarda bolalarning tafakkur jarayonlari bilan bog'liq analiz qila olish qobiliyatlarini kuzatish.

Tarbiyachi va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muayyan mavzuda suhbat uyushtirish;

Eksperiment;

Bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari vatafakkur jarayonlarining qanchalik rivojlanganlik darajasini test yordamida aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: Psixologiya fanida yaratilgan qonuniyatlarga asoslangan holda tafakkur jarayoniga ta'luqli yondashuvlar; tafakkur to'g'risida buyuk ajdodlarimizning fikrlari; tafakkur va nutqning rivojlanishida ta'sir etuvchi tashqi va ichki shart sharoitlar; maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan talim - tarbiya usul va vositalari; Respublikamizning "Sog'lom avlod" dasturi; maktabgacha ta'lim muassasalari uchun "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi; I.A.Karimov asarlaridagi g'oyalar izlanishimizga negiz bo'lib xizmat qildi.

B.M.ishning ilmiy - amaliy ahamiyati.

Tafakkur to'g'risidagi nazariyalar mohiyati yoritib berilganligi, tafakkur shakllanishining tashqi va ichki omillarning tavsifi yaratilganligi, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur shakllantirishga qaratilgan ta'lim tarbiya usul va vositalari eksperimental materiallar asosida izohlanganligi, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni shakllantirish to'g'risida amaliy tavsiyalar taqdim etilganligi. Mazkur malakaviy ishda berilgan uslublardan nafaqat maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda, balki akademik litsey, kasb hunar kollejlarida ma'ruzalarda foydalanish mumkin.

B.M.ishining tuzilishi ikki bob, 4ta paragraf, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati xulosa va ilova qismlarini o'z ichiga oladi

I bob Tafakkur va uning psixologiya fanida o'rganilishi

1.1. Tafakkur to'g'risida umumiy tushuncha.

Tafakkur ruhiy hayotimizning eng murakkab formalaridan biridir. Tafakkur otqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Demak tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Tafakkur hamma vaqt hissiy bilish protsesslari yordamida amalga oshiriladi. Tafakkurning maydonga kelishi uchun avvalo sezgi, idrok va tasavvur protsesslari bo'lishi kerak. Shuning uchun tafakkur hissiy bilish protsesslari bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, biror modda haqida tafakkur qilish uchun shu moddaning sifat xususiyatlari haqida sezgi a'zolari orqali ortirgan bilimlarga ega bo'lishimiz, moddaning o'zini idrok etishimiz va modda haqida turli tasavvurlarga ega bo'lishiz kerak. Ana shunday hissiy bilimlar asosida tafakkur amalga oshiriladi. Tafakkur qanchalik murakkab aks ettirish protsessi bo'lishidan qat'i nazar, u hamisha til vositasi bilan amalga oshiriladi. Til va tafakkur o'zaro uzviy, ya'ni bir-biridan ajralmas protsessdir. SHuning uchun ham fikrning realligi tilda nomoyon bo'ladi, deb bekorga aytilmagan. Nutqi normal taraqqiy etgan odamlarda, tilsiz tafakkurning bo'lishi mumkin emas. Tilga ega bo'lmagan, ya'ni soqovlarda o'am tafakkur bo'ladi. Lekin ularning tafakkurlari konkret narsalar, obrazlar va tasavvurlar asosida yuzaga keladi. SHuning uchun ularning tafakkurlari o'zining taraqqiyot darajasi jihatidan normal egallagan odamlarning tafakkurlaridan ancha orqada qoladi. Biroq til bilan tafakkur bir narsa emas. Tili nihoyatda rivojlangan, ammo lekin tafakkuri sust odamlarni ham uchratish mumkin. Tafakkur-inson aqliy faoliyatining, aql- zakovatining, ongli xatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Analiz va sintez operatsiyalari. Analiz shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy va xususiyatlarini taxdil qilamiz. Allomalarning aytishicha, maymunning yong'oqni chaqishining o'ziyoq boshlang'ich oddiy analizdir. O'quvchi va talaba yoshlar turmushda va dars jarayonida analiz yordami bilan ko'pgina ishlarni amalga oshiradilar, topshi-rikdar misol va masalalarni echadilar. Demak, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni inson tomonidan o'zlashtirib olish analizdan boshlanar ekan..

.Sintez-shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo'lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda bir-lashtirib, butun holiga keltiramiz. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo'laklarini bir butun qilib qo'shish-dan iborat aqliy faoliyat ekanligi ta'rifdan ham ko'rinib turibdi. Analiz amaliy bo'lgani kabi sintez ham amaliy xarakter kasb etadi. Masalan, motor yoki dvigatelning qismlarini, detallarini yig'ishtirib o'rni-o'rniga joylashtirilganda, ya'ni sintez qilinganda motor yoki dvigatel' hosil bo'ladi. Avtomashinaning kuzovni, kabinasini, motor va hokazo qismlari sintez qilingan mahaldagina bir butun avtomashinani bunyod etish mumkin. Turli psixologik mavzularni o'rganish orqali psixologiya fani to'g'risida yaxlit tushuncha paydo bo'ladi. Kimyoviy elementni reaksiyaga kiritish yo'li bilangina istalgan birikma hosil qilish imkoniyati tug'iladi. Rassomlar ko'z, qosh, burun va kishining boshqa organlarini mutanosib ravishda chiziq orqali bir butun inson shaklini yasash, yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar va hokazo.

Xalq orasida Afandi, Aldar ko'sa, Rustambek, Alpomish, Zulqarnay, suv parisi, ajdarholar, jinlar, alvastilar, devlar, Semurg', oltin baliq va boshqa narsalar, ayrim tana organlarini, hayvon va inson tuzilishini, his va hayajonlarni, xarakter va irodani birlashtirib, yagona afsonaviy obrazlar yaratishga muvaffaq bo'lingan.

Analiz va sintez o'zaro bevosita mustahkam bog'langan yagona ja-rayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilin-magan bo'lsa, uni sintez qilib bo'lmaydi, har qanday analiz predmetlarni, narsalarni bir butun holda bilish

asosida amalga oshirilishi lozim.

Ish-harakatlarni yaxlitlash tufayli bir butun moddiy narsa hosil bo'ladi, ish-harakatlarda ham sintez operatsiyasini qo'llasa bo'lar ekan. Tarixiy qahramonlar, buyuk sarkardalar, arboblarning to'g'risida ham xuddi shunday fikr va mulohazalar yuritish mumkin.

Analiz va sintez o'zaro bevosita mustahkam bog'langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilin-magan bo'lsa, uni sintez qilib bo'lmaydi, har qanday analiz predmetlarni, narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Taqqoslash insonning ijtimoiy faoliyatida, bilimlarning o'zlashtirilishida, voqelikni to'laroq aks ettirishida bir-biriga o'xshash jihatlar tafovutini, shuningdek, bir-biridan farq qiladigan tomonlar o'rtasidagi o'xshashlikni topishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi katta ahamiyatga ega. Taqqoslash-shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

Allomalardan biri (XIX—XX asrlarda yashagan) taqqoslashning psixologik mexanizmi to'g'risida juda ilg'or fikrlarni ilgari surib, quyidagi mulohazalarni bildiradi: «Agar siz tabiatning biror narsasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o'ziga juda o'xshash bo'lgan narsalardan tafovutini topingiz va uning o'zidan juda uzoq bo'lgan narsalar bilan o'xshashlik topingiz. Ana shunda siz shu narsaning eng muhim, hamma belgilarini payqab olasiz, demak, shu narsani tushunib olasiz».

Bilish ob'ekti hisoblangan narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni yoki farqni, tenglik yoki tengsizliklarni, ayniyat yoki ziddiyatlarni aniklashdan iborat bo'lgan fikr yuritish operatsiyasi bilishning dastlabki va zarur vositasi bo'lib hisoblanadi. Ajdodlarning taqqoslashning ta'limdagi roli to'g'risida shunday fikrlarni bildirgan edi: Taqqoslash har qanday tushunishning va har qanday tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko'rish yo'li bilan bila olmasak, boshqa yo'l bilan bila olmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bi-lib olishimiz mumkin bo'lmagan biron bir narsaga

duch kelganimiz-da edi, u holda biz shu narsa to'g'risida hech qanday fikr hosil qila olmagan bo'lar edik.

YUqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, taqqoslash, fikr yuritish operatsiyasi sezgilarimizda va idroklarimizda hali gavdalanmagan o'xshashlik va tafovutni topish zaruriyati vujudga kelgan paytda namoyon bo'ladi. Psixologiyada yana shu narsa ma'lumki, sezgi va idrokimizda dastavval narsalarning va hodisalarning o'xshash va farklanuvchi tomoni ko'zga yaqqol tashlanadi.

Taqqoslash operatsiyasi ikki xil yo'l bilan amalga oshishi mumkin: amaliy (konkret narsalarni bevosita solishtirish) va nazariy (tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taq-qoslash).

Kishilar narsa va hodisalarni biron belgiga (alamatga) asoslanib taqqoslashda qiyinchiliklarga uchraydilar. SHuning uchun beri-. layotgan informatsiyalar mohiyatiga diqqat-e'tibor qilish shart. Kishilar uchun taqqoslash printsiipi tushunarli va aniq bo'lsa, mavjud qiyinchiliklarni bartaraf qilish imkoniyati tug'iladi. Inson ol-diga aniq maqsad qo'yilsa, yoinki o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatiga kirib borish uchun ustanovka berilsa, fikran taqqoslashda xatolar miqdori keskin kamayadi.

Psixolog olimlarning ta'kidlashlariga qaraganda, taqqoslash operatsiyasida katta yoshdagi kishilarda va o'quvchilarda uchraydigan asosiy kamchilik bu jarayonni noto'g'ri tasavvur qilish yoki xato tushunishdir, ya'ni taqqoslash deganda ikki va undan ortiq narsalarni yonma-yon qo'yishlik deb faraz qilishlikdir. Inson shaxsiy faoliyatida, ta'lim jarayonida taqqoslash ustida qanchalik ko'p mashq qilsa, taqqoslash ko'nikmasi paydo bo'lsa, unda fikr yuritish shunchalik samarali bo'ladi.

Abstraktsiya. Narsa va hodisalarning, qonun va qonuniyatlar-ning ayrim belgisi, sifati, alomati yoki xususiyatlarini fikran ulardan ayirib olib, mustaqil fikr ob'ektiga aylantirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi inson bilish faoliyatida muhim ahami-yatga ega. Masalan, bilish jarayonida tabiat, jamiyat va ayrim inson-larga xos bo'lgan «go'zallik» belgisini ayirib olib, ularning go'zal-ligi to'g'risida emas, balki umuman go'zallik, ya'ni estetik kategoriya mazmunidagi tushuncha

yuzasidan mulohaza bildiriladi.

Abstraktsiyalash shunday fikr tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farklab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodi-salarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fik-ran ajratib tashlaymiz.

Umumlashtirish abstraktsiyalash operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo'lmaydi, har qanday umumlashtirish asosida abstraktsiyalash jarayoni yotadi. Umumlashtirish jarayoni abstraktsiyasiz mavjud bo'lishi mumkin, lekin abstraktsiyasiz umumlashtirishning yuzaga kelishi mumkin emas. Agar abstraktsiyalash faoliyatida narsa va hodisalar-ning o'xshash hamda muhim belgilari tasodif belgilaridan fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda esa ajratib olingan o'xshash, umumiy va muhim belgilarga suyangan holda narsa va hodisalar birlash-tiriladi.

Boshqa fikr yuritish operatsiyalari kabi umumlashtirish ham so'z, nutq yordamida ro'yobga chiqadi. Jumladan, daraxt degan so'z qo'llanila-di, deb faraz qilaylik, unda biz turli daraxtlarga bevosita aloqada bo'lgan iborani aks ettirgan bo'lamiz. YOinki talaba degan terminni ishlatish bilan turli kurs, har xil fakul'tet va barcha oliy maktab-da tahsil slayotgan yoshlarni birlashtiramiz va hokazo.

Umumlashtirish jarayoni so'z ta'sirida vujudga kelgan ikkinchi signallar tizimiga asoslanadi. Akademik I. P. Pavlov fikricha, nutqsignallari tufayli nerv faoliyatining yangi printsiplari - abstraktsiyalash va bu bilan birga, oldingi tizimning behisob signallarini umumlashtirish vujudga keladiki, bunda ham o'z navbatida ana shu umumlashtirilgan yangi signallar tag'in analiz va sintez qilinaveradi.

Psixologiya fanida konkretlashtirish operatsiyasiga quydagicha ta'rif beriladi; konkretlashtirish hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'i nazar, bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir.

Konkretlashtirish umumiy, mavhum belgi va xususiyatlarni yakka, yolg'iz ob'ektlarga tatbiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida aktiv ishtirok etadi. Voqelik qanchalik konkret (yaqqol) shaklda ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab etadi. O'zining genetik kelib

chiqishiga qaraganda, kishilar dastavval tevarak-atrofni konkret belgilariga asoslanib, konkret holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib, tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Konkretlashtirishning ikkinchi funktsiyasi quyidagi misollar-dao'zining yorqin ifodasini topadi. Masalan, kishilar ketmon, belkurak, panshaxani dehqonchilik asboblari; igna, bigiz, angishvona va tikuv mashinasini tikuv asboblari; lola, atirgul, binafsha, bul'danejni gulga; daftar, ruchka, chizg'ichni o'quv qurollariga kiritadilar. Demak, bu misollarda konkretlashtirish operatsiyasi umumiy va yakka belgilari kam bo'lgan umumiylikni ochishda namoyon bo'ladi. Umuman konkretlashtirish abstraksiyalashni kontrast holati bo'lib, inson bilish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Klassifikatsiyalash insonning bilish faoliyatida muhim rol' o'ynovchi fikr yuritish operatsiyalaridan biri klassifikatsiyalash hisoblanadi. Bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farqqilishiga qarab, narsalarni turkumlarga ajratish tizimi klassifikatsiya deb ataladi. Fan olamida buyuk hissa bo'lib qo'shilgan D. I. Mendeleevning «Elementlarning davriy tizimi» jadvali klassifikatsiya uchun yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarining bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan.

Psixologiya fanida psixik holatlar, bilish jarayonlari, shaxsning individual tipologik xususiyatlari ham klassifikatsiya qilinadi.

Shunday qilib, klassifikatsiya biz tekshiradigan ob'ektlarning muayyan tartibni topishda, o'rganishimizda zarur bo'lgan narsa va hodisalarni yaxlit holda tekshirishimizda, o'zlashtirmoqchi bo'lgan materiallarni puxta esda qoldirishimizda muhim rol' o'ynaydi.

Sistemashtirish. Fikr ob'ektiv hisoblangan narsa va hodisalarni zamon (vaqt), makon (fazo) va mantiqiy jihatdan ma'lum tartibda joylashtirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi bilimlarni o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni tartibga solishda muhim rol' o'ynaydi. Odatda, sistemashtirish operatsiyasi yordamida narsa va hodisalar, faktlar, fikrlar va ob'ektlar makondagi, vaqtdagi

egallagan o'rniga qarab yoki mantiqiy joylashtiriladi.

Demak, insonning bilish faoliyatida «mavzulararo», «predmetlar-aro» bilimlarni tizimlashtirish yuzaga keladi. Binobarin, bilimlarning tizimga solinishi akdiy rivojlanishning dastlabki pog'onasi xisoblanadi.

Tafakkur shakllari

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odatda nutq tafakkur jarayonida hukmlar, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi. SHuning uchun hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar tafakkurning spetsifik shakllari deb ataladi.

Hukmlar

Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi.

Narsa va hodisalarda, voqelikda haqiqatdan o'zaro bog'liq bo'lgan belgilar (alamatlar) hukmlarda ham bog'liq ravishda ko'rsatib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsa (tomon) hukmlarda ham ajratib ko'rsatilsa — bu chin hukm deb ataladi. Masalan, «Me-tallar — elektr tokini o'tkazuvchidir», «Metallar qizdirilgandan kengayadi», degan chin hukmlardir. CHunki elektrtokini o'tkazish, qiz-dirilganda kengayish metallarga xos xususiyatlardir, bu hukmda u yoki bu holat faqat tasdiqlanib aytilayotir.

Moddiy olamda haqiqatdan bog'liq bo'lmagan narsa hukmda bog'liq qilib ko'rsatilsa, bunday hukm xato (yolg'on) hukm deb ataladi. CHunki bu hukmda aks ettirilgan sifatlar (belgi va alomatlar) bu narsalarga aslo muvofiq kelmaydi. Masalan, «Atommoddaning bo'linmas zarrachasidir», degan noto'g'ri hukmdir. Atom murakkab moddiy ti-zimga ega bo'lib, u yadro va elektronlarga bo'linadi. Atomning yadrosi ham bo'linadi, bu yadro protonlardan va neytronlardan iboratdir, degan hukmlardir. «Er quyosh atrofida aylanmaydi», degan misol ham chin bo'lmagan hukmlar doirasiga kiradi. Allaqachonlar inson tomo-nidan kashf qilingan geliotsentr nazariyasi mavjud bo'lib, ana shu nazariyaga asoslangan holda mazkur qonun hukm surmoqda. Demak, hukmning chinligi, ya'ni voqelikni to'g'ri aks ettirishi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Borliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikning miqdoriga, ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, hukm quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

tasdiklovchi yoki inkor qiluvchi hukm. Hukmlarning ushbu asoslarga tayanib bo'linishi sifatga qarab bo'linishi deb ataladi; yakka, juz'iy, xususiy va umumiy hukmga ajratilishi mumkin. Hukmlarning bunday belgilarga binoan bo'linishi miqdorga qarab bo'linishi deyiladi;

.Voqelikda ajratilgan narsa inkor qiluvchi hukmda fikran ajra-tilishi mumkin. YAKKA (yolg'iz) narsa va hodisa to'g'risidagi hukm yakka hukm deb ataladi.

Belgining biror turkumigagina taallukli tasdiklovchi yoki inkor qiluvchi hukm juz'iy hukm deb ataladi. Masalan: «Ba'zi metal-lar elektr tokini o'tkazmaydilar, «Qarzdor talabalar sessiyaga qo'yil-maydi». Bir turkumdagi narsa va hodisalarning hammasi to'g'risida tasdiklab yoki inkor qilib aytilgan hukm umumiy hukm deb ataladi.

Hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiklab yoki inkor qilib aytilgan hukm shartli hukm deb ataladi. Masalan: «Agar quyosh nuri uch burchakli prizmadan o'tkazil-sa, ekranda spektr hosil bo'ladi», «Agar talaba sessiyalarga qunt bilan puxta tayyorlansa, u «yaxshi» va «a'lo» baholar oladi», «Agar o'quvchi diqqat qilmasa, yangi materialni o'zlashrtira olmaydi», «Agar paxtakor bahorda erga yaxshi ishlov bermasa, kuzda hosil cho'g'i kam bo'la-di».

Hukmda narsalar va hodisalarga bir necha belgi nisbatan berilib, shu belgilardan farq bittasi unga tegishli bo'lsa, bunday hukmga ayiruvchihukm deb ataladi. Misol uchun: «Jismlar yo qattiq yoki suyuq, gazsimon holda bo'ladi», «Er yuzasi fasllarning o'zgarishiga qarab goh qattiq isib ketadi, goh ilib qoladi, goho keskin soviydi». Narsa bilan belgi o'rtasidagi aloqaning bor yoki yo'kdigi qat'iy shaklda aks ettirilsa qat'iy hukm deb ataladi..

Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o'rtasida aloqa bo'lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, u holda inson o'z fikrini quyidagi shaklda ifoda qilishi mumkin: «Ehtimol, Marsda organik hayot bordir». «Yigirma birinchi asr

boshlarida fan va texnika prog-ressi hozirgi davrdagidan taxminan uch baravar ortishi mumkin», «Jahondagi foydali qazilmalar zaxirasi yana bir yuz ellik-ikki yuz yilga etsa kerak» va boshqalar. Bunday hukmlar ehtimollik hukmlari deb atalad

Hukmning shunday yuqori formasi borki, unda faqat haqiqatda bo'lgan voqea qayd qilinmasdan, balki narsa bilan xususiyatning aloqasi qonuniy ekanligi aniqlab beriladi. Masalan, «Butun dunyoda, tinchlik g'alaba qozonishi muqarrar» ». Bunday hukmlar zarurlik (apodiktik) hukmlari deb ataladi. Bunday hukmlarda inson narsa (voqelik, hodisa) bilan uning xususiyati o'rtasida mahkam bog'lanish borligini va bu bog'lanishga zid keladigan boshqa bir holning bo'lishi aslo mumkin emasligini aks ettiradi.

Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan orgiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz. Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Psixologiyada xulosa chiqarish jarayonida foydalanilgan tayyor hukmlar asoslar deyiladi, ularning tahlil qilib chiqarilgan yangi hukmni esa xulosa deb atash qabul qilingan. Masalan: «Har qanday harakat materiya harakatidir». «Issiqlik harakat shaklidir», degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan «Demak, issiqlik materiyaharakatidir», degan yangi hukm chiqariladi. Einki ushbu misolni olib qaraylik: «Barcha sayyoralar harakatlanadi. Oy — sayyora. Demak, Oy harakatlanadi». Bunda har qanday harakat materiya harakatidir (umumiy yoki katta asos). Issiqlik harakat shaklidir (juz'iy yoki kichik asos) deb yuritiladi. Ikkinchi misolda esa: «Barcha sayyoralar harakatlanadi (umumiy yoki katta asos), Oy — sayyora (juz'iy yoki kichik asos)» deyiladi.

YUqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, mulohaza yuritish ham, xulosa chiqarish ham voqelikni bivosita bilishning asosiy shakli sifatida namoyon bo'lgan. Oldingi ikki hukmga asoslanib uchinchi hukm chiqariladi. Mazkur xulosani bevosita tekshirib ko'rishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. SHu sababdan xulosa chiqarish fikr o'rtasidagi shunday bog'lanishdirki, mazkur bog'lanish natijasida bir yoki undan ortiqhukmlardan uchinchi hukm keltirib chiqariladi. Bunda yangi hukm asosiy hukmning mohiyatidan keltirib chiqariladi.

Xulosa chiqarish uch turga bo'linadi: induktiv, deduktiv va analogik. Induktiv xulosa chiqarish-bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usuldirki, bunda bir necha yakka yoki ayrim hukmlardan umumiy hukmga o'tiladi yoki ayrim fakt va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratiladi. Masalan: «Temir elektr tokini o'tkazadi». «Mis elektr tokini o'tkazadi va hokazo. Inson yuqoridagi hukmlardan yangi umumiy hukm (xulosa) chiqarib, demak, «Metallarning hammasi elektr tokini o'tkazadi», degan yangi hukm chiqariladi.

Deduktiv xulosa chiqarishda- umumiy va yakka hukmlardan yakka yoki juz'iy hukm keltirib chiqariladi. Misol uchun: «Har qanday metall — element. Vismut metall». Demak, vismut -element.

Analogiya xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda biz ikki predmetning ba'zi bir belgilari o'xshashligiga qarab, bu predmet-larning boshqa belgilarining o'xshashligi to'g'risida xulosa chiqaramiz. Analogiya deb, narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshash bo'lgan ba'zi belgilariga qarabgina hukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish shakliga aytamiz. Analogik usulda chiqarilgan xulosa chin, taxminiy hamda yolg'on bo'lishi mumkin. Fikr yuritishning bunday shakli ko'pincha yosh bolalarga xos xususiyatdir. Demak, juz'iy ikki yakka hukmlarga asoslanib juz'iy yoki yakka hukm keltirib chiqaramiz. Bog'cha yoshidagi bola mana bunday mulohaza yuritadi: «Dadam darvozadan ismimni aytib chaqirib keldilar. Ular sovg'a olib kelgan bo'lsalar kerak». Bu bolaning mulohazasini analiz qilib ko'rsak, uning fikr yuritishning mana bunday tarzda taraqqiy etganligini shohidi bo'la-miz. «O'tgan galda dadam ismimni aytib chaqirib kelgan edilar. O'shanda ular menga sovg'a olib kelgan edilar. Yana chaqirayotirlar. Albatta, dadam menga sovg'a olib kelganlar», deb xulosa chiqaradi.

SHunday qilib, analogik yo'l bilan xulosa chiqarganda, murakkab qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlar o'zlashtirilmasa-da, lekin turmushning turli jabhalarida undan foydalanib turiladi.

Tushuncha narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi fikrdir. Odatda, tushunchalar mohiyati jihatidan konkret va abstrakt tushunchalarga

ajratiladi. Alohida olingan bir bu-tun narsaga aloqador tushuncha konkret tushuncha deb ataladi. Masalan: stol, divan, qayrag'och, traktor, holva va hokazo. Moddiy bor-liqdagi narslardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat, sifat holatlarga, shuningdek, narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt tushuncha deb ataladi. Masalan: okliq, uzunlik, balandlik, kenglik, harakat, yorug'lik, qiymat haqidagi tushunchalar va hokazo.

Tushunchalar ko'lami jihatidan uch turga bo'linadi: yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar va to'planma tushunchalar. YAKka tushunchalar, yakka narsa va hodisa haqidagi tushunchadir. Bunday tushunchalarga Alisher Navoiy, general Sobir Rahimov, Toshkent, Amudaryo, Himo-lay, Tinch okean to'g'risidagi tushunchalarni misol qilib keltirsa bo'ladi. YAKka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hami-sha aniq obraz mavjud bo'ladi. Umumiy tushunchalarda bir jinsda bo'lgan ko'p narsa va hodisalar gavdalantiriladi. Masalan: kitob, maktab, yulduz, talaba, o'spirin, hosil, tog' va er va boshqalar.

To'planma tushunchalar bir jinsda bo'lgan narsa va hodisalar to'pla-mi haqida yaxlit fikr yuritiladigan tushunchadir. Masalan: paxtazor, kutubxona, yig'ilish va hokazolar. To'planma tushunchalarning bir qanchasi birdaniga tatbiq qilinganda umumiy to'planma tushunchalar bo'ladi. Masalan: Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat kutubxonasi tushunchasi yakka to'planma tushunchaga oiddir. Guruh, sinf, kollektiv, polk, xalq, olomon va boshqalar umumiy to'planma tushunchasiga misol bo'la oladi. Etti og'ayni yulduzlar to'plami, Bolgariya ishchilar sinfi, Toshkent pochta xizmatchilari jamoasi kabilar yakka to'planma tushunchalar jumlasiga kiradi.

Abstrakt tushunchalarning yuqorida qayd qilib o'tilgan tushunchalardan farqi shuki, ular idrok yoki tasavvurga bevosita asoslanmaydi. Abstrakt tushunchaga misol tariqasida «qiymat» tushunchasini keltirib o'tadi: siz har bir ayrim tovarni ushlab va qo'lingizda aylan-tirib ko'rishingiz, uni xohpaganingizcha ishlatishingiz mumkin, ammo shu tovarni qiymat tariqasida olib qaraganimizda uni aslo ushlab bo'lmaydi.

Tushuncha bilan so'z munosabati bir tekis bo'lmaydi, ayrim paytlar so'z bilan

tushuncha aynan mos tushadi (olma-soʻz, olma-tushuncha), qolgan paytlarda tushuncha oʻz koʻlami jihatidan kengdir.

Tushunchalar fikr yuritishning asosiy jarayonlari, yaʼni klassifikatsiyalash, umumlashtirish va abstraksiyalashlar soʻzlar yordami bilan vujudga keladi. Soʻzlar, belgilar, simvollar, terminlar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmunini aks ettiradi. I. P. Pavlov taʼbiri bilan aytganda, soʻz birinchi signal tizimining, barcha signallarning signallaridir, binobarin, shu signallarning hammasini ifodalaydi, shu signallarning hammasini umumlashtiradi.

SHunday qilib, tushunchalar mohiyati hukmlarda yoritiladi, mavjud hukmlar asosida xulosa chiqariladi. Yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar, alomatlar tushunchalarni yanada boyitadi. Tafakkur yordamida inson yaratish, kashf etish, ixtiro qilishda davom etishi mumkin. Demak, yangi tushunchalar, terminlar bunyod qili-naveradi, isteʼmoldagilari esa yangi sifat va yangi mazmun kasb etadi. Determinizm printsipiga binoan, soʻzlar yangi tushunchalar yaratilishiga vosita boʻlib xizmat qilaveradi, shuning bilan birga tushunchalar zahirida yangi soʻzlar va iboralar vujudga keladi, yoki yangicha talqin qilinishga koʻchadi. Soʻz bilan tushunchalarning chambarchas bogʻlanishi va munosabati filogenezda ham, ontogenezda ham operatsional va funktsional xususiyatlarni yoʻqotmaydi.

Tafakkur sifatlari. Odatda, tafakkurning individual xususiyatlariga (sifatlariga) bilish faoliyatining mazmun-dorlik, mustaqillik, epchillik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlari kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda insonning tevarak-atrofdagi moddiy voqelik toʻgʻrisida ongida qay miqdorda (koʻlamda) mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi.

Tafakkurning chuqurligi deganimizda, moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari, ularning oʻzaro bogʻlanishlari, munosabatlari tafakkurimizda toʻliq aks etganligini tushunishimiz kerak. Tafakkur arsenalida joylashgan narsalarning qay yoʻsinda sistemalashganligiga qarab (toʻgʻri va ratsional yoʻl nazarda tutiladi), u yoki bu shaxsning tafakkur chuqurligi

to'g'risida qat'iy bir qarorga kelish mumkin.

Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatleri bilan muntazam aloqada bo'ladi. Insondagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi va xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan, o'tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to'g'risidagi mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olgan tafakkur keng tafakkur deyiladi. Fikr doirasi keng, bilim saviyasi yuqori, serg'oya, ijodiy izlanishdagi kishilarni akl-zakovatli, bilimdon yoki tafakkuri keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning akl-zakovati, bilimdonligi, mulohazadorligi uning tafakkuri kengligidan dalolat berar ekan.

Inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz (gipoteza) qilishi, natijani ko'z oldiga keltira oli-shi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz, o'zining akliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator faktorlarga: jumladan, fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligi-ga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liqbo'ladi. Bundan tashqari, tafakkurning tezligi boshqa shartlarga: insonning bilim savi-yasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan.

Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qan-chalik samara berganligi bilan baholanadi.

Jahon psixologlarining ko'rsatishiga qaraganda, yuqorida tahlil qilib chiqilgan tafakkur sifatleri ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog'liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati — bu moddiy voqelikdagi muhim jihatlarini ajratib, mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chi-qarishdir. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi

belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqiqatidan umumiy qonuniyat yaratishga xarakat qiladi. SHubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to'la foydalanilmagan rezerv va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu rezervlarni to'la ochish, fan va texnika progressini intensivlashdan iborat. CHunki har qanday kashfiyot, yangilik, progress inson akl-zakovatining mah-sulidir. SHu boisdan ham fan va texnika progressi insonshunoslik fanining rivojiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Psixologiya fanida tafakkur shakliga, topshiriqxususiyatiga, fikr yoyiq-ligiga, fikran originallik darajasiga qarab quyidagicha shartli klassifikatsiya qilinadi.

Ko'rgazmali-harakatli tafakkur

Qadimgi avlod va ajdodlarimizda er maydonini qadam bilan o'lchash, ko'z bilan chamalash bo'yicha amaliy bilimlar-ning to'planishi natijasida geometriya fani kashf qilingan. Kishilarning barmoq bilan hisoblash turmush talabini qondira olmagandan so'ng matematika, narsa va hodisalarning tasviri, shartli belgilarni qoldirilishi yakuni sifatida tarix fani kabilar vujudga kelgan. Er yuzasida amaliy bilimlar to'planishi asosida asta-sekin nazariyumumlashmalar barpo bo'la boshlagan, turli sohaga ta-allukdi informatsiyalarningtizimlashishi natijasida fanlar hosil bo'lgan. SHuning uchun insonning amaliy va nazariy faoliyati o'zaro uzviy aloqada bo'lib, hamisha biri ikkinchisini taqozo etadi. Genetik kelib chiqishi nuqtai nazaridan amaliy faoliyat birlamchi hisob-lanib, obrazlar tasavvurlar va fikrlarni aks ettiruvchi nazariy faoliyat esa amaliy faoliyatning ma'lum taraqqiyot cho'qqisiga chiq-qandan so'ng ajralib chiqqan. Mazkur jarayon bir necha o'ng ming yillar davomida yuzaga kelgan.

Agarda insoniyatningtarixiy taraqqiyoti muammosidan chetlanib, ushbu masalani olib qarasak, u holda amaliy faoliyat birlamchi ekanligiga qanoat hosil qilamiz. Buning uchun insonning ontogenetik taraqqiyotini dastlabki fazasiga murojaat qilamiz. Bola tug'ilishidan tortib, to uning bog'cha yoshigacha davrni amaliy faoliyatda ko'rgazmali-harakatli tafakkur o'sishining asosiy pallasi deb atash mumkin. Mazkur yoshdagi inson zoti ana shu amaliy faoliyat qobig'i-da aqliy harakatlarni amalga oshiradi, amaliy bilimlarni o'zlash-tiradi, natijada

ko'rgazmali-harakatli tafakkur o'sa boradi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar o'zlari o'ynayotgan narsalar, o'yinchokdarni qo'lla-ri bilan bevosita ushlab ko'rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Idrok qil-gan predmetlar va o'yinchoqlarni o'zaro solishtiradilar, qismlarga ajratadilar, analiz va sintez qiladilar, bo'laklarga ajratilgan-larni yaxlit holga keltirib birlashtiradilar. Kattalar tushuntiri-shiga ishonch hosil qilmasdan, ayni chog'da ularni — ob'ektlarni sin-dirib yoki buzib bo'lsa ham ularning ichki tuzilishi bilan tanishish ishtiyoqi (mayli) kuchli bo'ladi. SHu boisdan amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilishda ko'pincha «buzib-tuzatish» yo'li bilan hara-kat qiladilar. Ko'rgazmali-harakatli tafakkur bog'cha yoshiga etgandan so'ng bolalarda o'z qiymatini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur

Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi ko'rgazmali-obrazli tafakkur deb ataladi. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4—7 yoshgacha bo'lgan bolalarda namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-harakatli tafakkurning amaliy elementlari ko'rgazmali-obrazli tafakkur bos-qichiga o'tgandan so'ng ham saqlanib qoladi, lekin u o'zining etakchi rolini yo'qota boshlaydi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar jism va pred-metlar bilan tanishayotganda analitik-sintetik faoliyatdan foydalanib ish ko'rayotganda ularni qo'l bilan ushlab ko'rishga, ichki tuzi-lishi bilan amalda tanishishga intilmaydilar. CHunki ko'p hollarda ulardan amaliy harakat qilish talab qilinmaydi. Lekin bu ular jism va predmetlarni, ob'ektlarni aniq va to'liq idrok qilish, yaqqol tasavvur etish imkoniyatidan mustasno qilinadi, degan so'z emas, albatta. Intuitiv va analitik tafakkur

Tafakkur aktivligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. Intuitsiya deb, mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy va-zifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoni ataladi. SHaxsning muayyan sohadagi hayotiy yoki ilmiy tajribalari-ga asoslangan intellektual sezgirlikidan iborat faoliyatdir.

Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza qilish kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Tafakkur jarayonlari ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyor javoblar axtarish hollari uchrab turadi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma'lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar ham ko'pincha xuddi shunday beixtiyor fikr qilib turgan mahalda to'satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi Arximed solishtirma og'irlik qonunini zo'r berib aqliy meh-nat qilish paytida emas, balki hech kutilmagan jarayonda, vannada cho'milib turgan paytida kashf etgan. Ulug' rus olimi D. I. Mendeleevning hikoya qilishicha, u elementlar davriy tizimi jadvalini tuzish vaqtida uch kechayu uch kunduz betinim mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga etkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joy-lashtirilgan jadvalni ko'rgan. SHunda D. I. Mendeleev uyqudan uy-g'onib, bir parcha qog'ozga tushida ayon bo'lgan jadvalni ko'chirib qo'ygan.

Ko'pincha psixolog va fiziologlar ta'kidlashlaricha, muammoning bunday oson ravishda echilishi hech kutilmagan yuqoridagi kabi beix-tiyor hal qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko'rganicha bo'lgan davr ichida oylab, yo'llab qilingan mehnatning yakuni, ya'ni tugallanmay qolgan tafakkur jarayonining nihoyasiga etishdir, deb baho-lamoqdalar.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa va hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deb ataladi. U o'z navbatida yaqqol-predmetli tafakkur va yaqqol-ob-razli tafakkur nomi bilan ikki turga ajratiladi. Agar fikr yuritish ob'ekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-predmetli tafakkur deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-obrazli tafakkur deb ataladi. Tafakkurning bir turi xotira yoki xayol tasavvuriga asos-langani holda namoyon bo'ladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda

ifodalovchi tushunchalarga tayanib, fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma, geometriya, oliy matematika masalalarini echish mahallida fikr yuritish, mulohaza bildirish abstrakt tafakkurga xos misollardir

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur nazariy tafakkur deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni, munosabatlarni, ichki bog'lanishlarni yoritib borish va shu bog'la-nishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida izohlanayotgan narsa va hodisalar, xossa va xususiyatlar, jism va predmetlar, umuman butun voqelik ma'lum turkumdagi tushunchalar qatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlari fikran ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari, muayyan ob'ektlarning mohiyati, mazmuni, mavjud bo'lishlik sabablari, kelib chiqishi, taraqqiyoti, o'zgarishi, shuningdek, ularning ahamiya-ti va funktsiya hamda vazifalari izohlab beriladi.

Nazariy tafakkur jarayonlarda «Nega?», «Nima uchun?», «Nima sa-babdan?», «Buning o'zi nima?», «Bu hodisa yoki holatlar, yoxud tushunchalar o'rtasida qanday o'xshashlik va tafovutlar mavjud?» kabi qator savollar vujudga keladi. Berilgan savollarga atroflicha o'ylab, man-tiqan oqilona tuzilgan javoblar ham topiladi.

Nazariy tafakkurni ayni bir paytda abstrakt tafakkur deb atashlik an'ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiy hukmlarda ifodalanishidir. Misol uchun: «Metallar elektr tokini yaxshi o'tkazadi». «Jismlar ishqalanishdan qiziydi». «Hamma hayvonlar o'zi yashayotgan muhitga moslashadi». «Narsa va predmet nomini bildirib kelgan so'zlar ot deb ataladi». «Diqqat barcha psixik jarayon va holatlarning muva-faqqiyatli amalga oshirish garovidir». «O'tish (o'smirlik) davri ham jismoniy, ham jinsiy jihatdan intensiv o'sish davridir». «SHaxs taraqqiyoti nasliy (irsiy) belgi, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbi-yaga bog'liqdir». «Qiziqish va ehtiyoj inson shaxsining muhim jiha-tidir» va hokazo.

SHunday qilib, abstrakt tafakkur orqali narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlari, o'zaro muno-sabatlari aniqlanadi, u yoki

bu sohaga oid qonuniyatlar ochiladi, sabab-oqibat bog'lanishlari aks ettiriladi.

Voqelikni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratishga yo'naltirilgan fikr yuritish amaliy tafakkur deb ataladi. U qo'yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan bog'liq murakkab tafakkur ja-rayonidir. Amaliy tafakkur jarayonida ham nazariy tafakkurga o'xshash savollar tug'iladi. Amaliy tafakkur jarayonining davomi ish-harakatlarni, akliy harakatlarni tasavvur qilishda, fikrlashda namoyon bo'ladi.

Ijodiy tafakkur murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda, izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi: dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani echish yoki savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala- bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo'lgan savolning ifodasidir. Namoyon bo'lgan vazifa ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsadni ham o'zida aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma'lum voqe-likni topishga gumon va hayajon, shubha hislardan forig' etishga qaratilgan maylidir.

Ijodiy tafakkur ijodiy xayol bilan uzviy aloqada bo'ladi. SHuning uchun inson amaliy faoliyatida bir talay savollarga javoblarni xayol yordami bilan topadi. Ijodiy fikr yuritish jarayonida goho kamchilik va xatolarga yo'l qo'yiladi. Natijada olingan javoblar yoki qo'llanilgan vositalarda shubhalanish hissi paydo bo'ladi. Oqibatda natijalarni tanqidiy tekshirish masalani hal qilish bilan parallel ravishda namoyon bo'lishi mumkin..

Ijodiy tafakkur jarayonida inson masalani hal qilishda o'zgalarning yordamiga tayanib ish ko'radi. Ayrim hollarda masala yoki topshiriqni hal qilish, echish paytida ijodiy tafakkur shaxslararo munosabatda, muloqotdagi voqe bo'ladi. Muloqot esa fikr almashish, suhbatlashish, muhokama qilish, bahslashish, isbotlash, dalillash kabi mantiqiy usullardan tashkil topadi. Ijodiy tafakkur bilan masala echish o'zaro uzviy bog'langan bi-lish jarayonlaridir. Lekin ijodiy tafakkurni masala vositasiga aylantirib yuborish mutlaqo mumkin emas..

Demak, ijodiy tafakkur turi o'zining samaradorligi va dolzarbligi,

universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o'ylab chiqishda, masalan, hal qilishda zarur jarayon bo'lib, insonning bilish faoliyatida etakchi rol' o'ynaydi.

1.2. Psixologiya fanida tafakkur muammosining o'rganilishi

Tafakkur muammosi doimo olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. Uni talqin qilishda turli yondashuvlar mavjud.

Tafakkur assotsiativ psixologiyada assotsiatsialar bilan bog'laniladi. Bunda o'tmishdagi idrok va tasavvurlar hozirgi zamon tajribasidan kelib bog'lanadi. Assotsiativ psixologiyaning asoschisi David YUm (1711-1776) bo'lib, uning maslakdoshlari David Gartli (1705-1757) Djozef Pristli (1733-1804) psixik hodisalar, holatlar, protsesslar, tasavvurlarning yaxlit bo'lib birlashishining asosiy qonuni sifatida assotsiatsialar haqidagi ta'limotni yaratdilar.

David YUmning ta'limotiga ko'ra, ongning murakkab xususiyatlari, hodisalari va mahsullari o'z-o'zini anglash, ya'ni o'zining "men" ekanligini tan olish, o'zaro tashqi bog'lanishlar bilan uzviy aloqador "tasavvur birikmalari"dan iboratdir.

David Gartli va Djozef Pristlilar esa oddiy assotsiativ tasavvurlarni bosh miya yarim sharlarida sodir bo'ladigan fiziologik bog'lanishlar bilan aynan bir hil narsa deb tushunib, ularni o'zaro tenglashtirish darajasiga borib etdilar. Hatto Gartli psixologiya fanini ruhiyat fizikasi deb atashga harakat qildi. Assotsiativ psixologiyaning materialistik oqimi vakillari psixologiya fanini fiziologiyaning ayrim bir tarmog'iga aylantirishga urindilar. Assotsiativ psixologiya tarafdorlari Djems Mil, Djon Styuart, Aleksandr Ben, Gerbert Spenser, Yulius Ebbingauzlar Psixik protsesslar, chunonchi xotira, tafakkur, nutq, xayol, iroda kabilarissiy bilish bosqichida turgan sezgilardan va ularning obrazlari bo'lgan tasavvurlardan hosil bshladi deb isbotlashga harakat qildilar.

Assotsiativ psixologiyani chuqurroq tahlil qilish uning zaif tomonlari va jihatlari borligini ko'rsatdi. Ushbu nazariya tafakkurninig faolligi, uning ijodiy xarakterini ochib bera olmagan.

Bixeviorizm da tafakkur predmet reaktisialari orasidagi murakkab bog'liqlikni shakllantirish, masalalarni echim bilan bog'liq amaliy ko'nikma va malakalarni yuzaga kelishi jarayoni sifatida nomoyon bo'ladi.

Geshtal'psixologiyada tafakkurni masalani intuitiv oldindan echish usuli sifatida qabul qiladilar.

Psixoanalitiklar ham tafakkur muammosini hal etishda o'z hissalarini qo'shganlar. Ular diqqatni tafakkurning ongsiz turlariga qaratganlar va tafakkurni motivlar va ehtiyojlar bilan bog'liqligini aniqlaganlar.

Hozirgi davrda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli tuman qarash va ta'riflar mavjuddir. Ularni ayrimlariga xarakteristika berib o'tamiz. S. L. Rubinshteyn nazariyasiga binoan, tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishning asosiy predmeti jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo'lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S. L. Rubinshteyn tafakkur to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni sub'ekt faolligining paydo bo'lishi deb atadi.

A. N. Leont'ev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulo-haza yuritib, tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. SHuning bilan birga tafakkurning strukturasi, fikr yuritish motivatsiyasi to'g'risida nazariy-metodologik muammolarni o'rta tashlaydi.

P. YA. Gal'perin fikriga ko'ra, tafakkur-bu orientirlash tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayonidir, ya'ni orientirovka jarayoni, orientirovka faoliyati. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarini echishda sub'ektning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb tushuntiradi. P. YA. Gal'perin tafakkurning boshqa jahatlarini o'zining aqliy harakatlar-ni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

A. V. Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangi-likni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'tiladi. YUqoridagi mualliflardan farqli o'laroq A. V. Brushlinskiy tafakkurning umumlashtirib, bilvosita aks ettirishdan tashqari muhim yangilikni izlash va ochish, oldindan bashorat qilish xususiyatlari mav-judligini dalillab ko'rsatadi.

Umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'rif turlicha bo'lib, ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, xolos. Jumladan, P. I. Ivanovning darsligida «tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi», deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bivosita so'z yordami bilan ifodalaniishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

M. V. Gamezo «tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi» ekanligi bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan, so'z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishini ta'kidlaydi. Bizningcha, tafakkurga berilgan ushbu ta'rif uning predmetini to'la ochib berishga qurbi etmaydi, shuning uchun boshqa manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

A. V. Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga ushbu shaklda ta'rif o'z ifodasini topgan: «Tafakkur — ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir». Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, tafakkur yuqorida keltirib o'tilgan ta'riflardan bir muncha kengroq xususiyatlarni ochib berish uchun xizmat qiladi, biroq uning jihatlari to'la qamrab olinmagan.

V. V. Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta'rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga o'xshash tafakkur xususiyatlari F. N. Gonobolin, K. K. Platonov darsliklarida ham uchraydi.

Bizningcha, tafakkur predmetini belgilash uchun to'laroq ta'rif O. K. Tixomirovning darsligida berilgan. Tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: «Tafakkur-bu o'z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bivosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasi va

foydalanadigan vositalariga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir». O. K. Tixomirov mazkur ta'rifda tafakkurning aksariyat jihatlari va xususiyatlarini ta'kidlab o'tgan. Lekin tafakkur muammosiga yangicha yondashishlarning paydo bo'lishi ta'rifni yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

Tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan sho'ro psixologlari tomonidan bildirilgan mulohazalarga yakun yasab, umumiy ta'rif berishning mavridi keldi. Psixologiyada tafakkurga nisbatan berilgan qator tushunchalar mavjuddir, jumladan, jarayon, fikr yuritish faoliyati, bashorat qilish, anglashilgan bilimlar, aql mezoni, fahmlilik va boshqalar. YUritilgan fikrlarga suyangan holda, tafakkurga quyidagi shartli ta'rifni berish mumkin: Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavoysita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy-sababiy bog'langanlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. Ta'rifda tafakkurning eng muhim xususiyatlari va funktsiyasi sanab o'tilgan, ya'ni so'z (fikr) bilan, umumlashtirib, bavoysita, ijtimoiy-sababiylik, yangilik ochish, bashorat qilish, jarayon, faoliyat va boshqalar. Bizningcha, berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda tafakkur predmetini anikdashga harakat qilinsa maq-sadga muvofiq ish qilingan bo'lar edi. Tafakkur predmetini belgi-lash mashaqqati uning murakkab bilish jarayoni ekanligini yana bir karra tasdikdab turibdi.

Keyingi yillarda vizual tafakkur muammosi kosmos psixologiyasida intensiv ravishda tadqiq qilinmoqda.

Yirik psixologlardan biri 3. I. Kalmikova o'z tadqiqotlarida tafakkurning produktiv va reproduktiv turlarga ajratib o'rgangan edi. Bu bo'linish sub'ekt bilimlariga fikr yuritish faoliyatida olinadigan mahsulning yangilik darajasining munosabati asos qilib olinadi. Qisqa vaqt birligi ichida yangi, original fikrlar yaratish yoki muhim ilmiy, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv tafakkur deyiladi. Reprodukativ tafak-kur esa passiv, tayyor mulohazalarni o'zlashtirib olishga va «tayyor holda» undan foydalanishga qaratilgan insonning bilish faoliyati ko'rinishidir.

Fazoviy tafakkur muammosi atokdi sobiq sovet psixologi B. G. Anan'ev va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, keyingi yillarda bu muammo yuzasidan tanikli psixolog I. S. Yaki-manskaya intensiv ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib, sermahsul natijalarni qo'lga kiritayotir. Tajribalarning aksariyati kasb hunar-kolleji (bilim yurti) o'quvchilari ustida olib borilgan. Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda ratsional joyla-shishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab bog'lanishlari-ni adektiv ravishda aks -ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi. U insonning fazoviy tasavvurlari, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Abstrakt tafakkur muammosi qator sobiq sho'ro psixologlari to-monidan izchillik bilan tadqiq etilgan. Sobiq sho'ro psixologiya-sining dastlabki rivojlanishi pallasida ushbu masala bilan L. S. Vigotskiy, P. P. Blonskiy, keyinchalik S. L. Rubinshteyn, B. G. Anan'ev, A. N. Leont'ev, N. A. Menchinskaya, G. S. Kostyuk, P. YA. Gal'perin, R. G. Natadze, D. B. El'konin, V. V. Davidov, A. M. Ma-tyushkin va boshqalar shug'ullanganlar. Hozir mazkur muammo yuzasi-dan etarli darajada empirik va nazariy bilimlar to'plangan. Fan va texnikaning taraqqiyoti abstrakt tafakkurni yanada rivojlanti-rishni taqozo etmoqda. Psixolog V. A. Krutetskiy ijodiy tafakkurni taraqqiy ettirish maqsadida masalalar tipologiyasini ishlab chiqib, turli yoshdagi o'quv-chilar o'quv faoliyatida sinab ko'rgan. Olingan natijalar olim to-monidan sifat va miqdor jihatdan analiz qilinib, fafik tasviri (ifodasi) aks ettirilgan.

2 bob. Maktabgacha yoshdagi bolalar taffakuri rivojlanishining psixologik xususiyatlari.

2.1 Maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyotiga umumiy tavsifnoma.

3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri xisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4yosh) kichik maktabgacha davri(4-5yosh)kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr(urta bogcha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshilarga ajratish mumkin.Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi.Bola insoniyat qulga kiritgan barcha yutuklarni faol ravishda o'zlashtirib,egallab boradi.Bunda predmetlar olamini,xamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti – harakatlarni, tilni , odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bogcha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil kilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabgi kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Olimlarning fikricha insonning bog'cha yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi

i. Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatnining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin:bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi,lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan

charchab koladi. Mana shu so'zlardan bog'cha yoshidagi bola tabiatning asosiy qonuni bo'lmish serharakatligini ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Uch yoshli bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'rnini yig'ishtirish kunikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin. Mazkur yosh xususiyatlarini tadqiq qilgan N.M. Shchelovanov, D.B. El'konin va boshqalarning fikricha, bolaning uch yoshgacha o'sishida erishgan yutuqlari uning xulq-atvorini, bilish jaraenlarini sifat jihatdan ancha o'zgartirib yuboradi. Shunga qaramay, bolaning o'sishiga kattalarning ta'siri, roli etakchiligicha qolaveradi, lekin asta-sekin o'sib borishi mustaqilroq bo'lishini ta'minlaydi. Ammo maktabgacha yoshdagi mustaqillik ko'pincha bolaning amaliy faoliyatda uncha kuchli bo'lmagan shaxeiy imkoniyati

doirasida kattalar yordamisiz harakat kilishida, nisbatan oz uchrasa-da, tobelikdan qutulish tuyg'usida ro'yobgachi qadi.

Bolaning mustaqilligi faqat uning jismoniy va aqliy imkoniyatida, kuchi etadigan jarayonga nisbatan o'z munosabatini kattalarning ko'magisiz amalga oshirishida emas, balki o'zining kuch-quvvati, qurbi etmaydigan, muayyan amaliy ko'nikmalarini egallay olmagan turmush muammolarini hal etishida ham ko'rinadi. Mazkur psixologik holatning o'ziga xos jihatlari ZI'za Keller, N.A. Menchinskaya, V.S. Muxina, E.G'oziev va N. Sodikxo'jaevaning mamlakatimizda, chet ellarda mashxur ona kundaliklarida yoritilgan hamda batafsil taxlil qilingan.

Maktabgacha yoshga qadar bolalarning psixologik xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda kimning ilmiy tadqiqoti va asari bo'lishidan qat'i nazar, unda vujudga keladigan xohish, istak hamda niyatning qondirilishi individni kamol toptirishga, shakllan-tirishga qaror qilgan kattalar tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi. Mana shu yosh davrida namoyon bo'ladigan tarbiya jarayonvdaga ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki alomatlari (belgilari) ham psixologik tadqiqotlarda va ilmiy-psixologik adabiyotlarda ko'p marta ta'kidlangan bo'lib,

birinchi navbatda o'jarlik, negativizm, qaysarlik, injiqlik kattalarning bolalar nazarida obro'sizlanishi va qadrsizlanishi kabi illatlar bilan bomikdir. Qator ilmiy-psixologik manbalarda aytilishicha, shu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va irodasida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi va bularnng hammasi boladagi xudbinlik, o'ziga bino qo'yish, aksilijtimoiy mayl, urinish, qaysarlik, rashk kabi illatlarda yaqq'l aks etadi.

N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinaning oqilona mulohazalariga qaraganda, bolalardagi injiqliklarning bosh omili atrofdagi odamlarning shaxsiga adolatsiz, noto'g'ri, mensimay munosabatda bo'lishidan iboratdir, bizningcha, o'zini tan oldirishga intilish ham bunga sababdir.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rgangan A.N.Golubevaning fikricha, noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish unda o'jarlikni paydo qiladi. SHuningdek, bu yoshdagi bolalarning o'jarligi doimiy bo'lmaydi, masalan, o'z tengdoshlariga nisbatan o'jarlik qilish ahyon-ahyondagina ro'y beradi, ular asosan katta yoshdagi odamlarga, shundaham muayyan tarbiyachiga yoki oila a'zolarining birortasiga o'jarlik qiladilar.

A.N.Golubeva bolalardagi o'jarlik barqaror emasligi sababli uning oldini olish mumkinligini uqtiradi. A.P.Larinning tadqiqotida esa noqulay va nomaqbul tarbiyaviy shart-sharoitlarda qaysarlik juda erta, hatto uch yoshda ham paydo bo'lishi ifodalangan. Dastlab o'jarlik ba'zi-ba'zida ro'y beradi, lekin u hech qachon barcha katta yoshdagi kishilarga qaratilgan bo'lmaydi, binobarin, uning ob'ekta "alohida shaxe hisoblanadi. Bola xarakterining bu sifati muhitning noto'g'ri tarbiyaviy ta'siri oqibatida biror darajada barkarorlashea, keyinchalik ko'pchilikka qaratilgan, umumlashgan shaklga kira boshlaydi. O'jarlik bir guruh odamlarga yo'nalganligini ham uchratish mumkin. A.P.Larin to'plagan ma'lumotlar o'jarlikning asosiy sabablari — bolaning mustaqilligini cheklab qo'yish, erkinlik tuyg'usi va tashabbusini so'ndirish va uning ong xususiyatini (anglash sur'atini) kamsitishdan iboratligini qo'rsatadi.

Mazkur omillar bolaning kattalarga munosabati negizini tashkil qiladi va uning psixik o'sishi davomida muayyan darajada o'zgarib boradi. Ularning

o'zgarishi kattalarning bolaga u erishgan kamolot bosqichini hisobga olib, oqilona munosabatda bo'lishiga bog'liq. Agar maktabgacha davrda bolaga tegishli munosabatda bo'linmasa, unda o'jarlik vujudga kelishi mumkin.

Bola xulqida muayyan sharoitning ta'siri bilan paydo bo'lgan o'jarlik va nojo'ya qiliqlar mavjudligi, uning psixikasida jiddiy o'zgarish ro'y berganini, endi unga uninghozirgi o'sish darajasini hisobga olib, munosabatni amalga oshirish zarurligini bildiradi. Bolaning psixikasida vujudga keladigan inqiroznint sabablari: 1) kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatini; 2) xohish va istagini mustaqil holda turmushda qaror toptirishga intilishini; 3) ayrim ko'zga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga urinishini; 4) o'z holicha ish tutishini cheklashlaridir.

Kattalar bolaning ra'yiga, mustaqilligiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagiga, intilishiga yordam bersalar, uning shaxeini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o'z-o'zidan barham topadi, nizo yoki ixtilofning oldi olinadi.

Oila va bog'chada shaxslararo munosabatlar ilmiy asosga kurilib, oqilona qoidaga suyanilsa va pedagogik odob (nazokat) doirasidan chetga chiqilmasa, yuqorida aytilgan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin emas.

O'jarlik, qaysarlik, kattalarga itoatsizlikning vujudga kelishi bolaning kattalarga qaramlikdan qutulishga urinish va kichik maktabgacha yosh davridan maktabgacha davrga o'tishning tashqi ifodasidir. Mustaqillikka intilish mazkur yosh davridagi o'zgarishlar, yangilanishlar, ya'ni shaxsiy xatti-harakatni va "men o'zim"ni anglashning mahsuli tariqasida ro'yobga chiqishi kutiladi. D.B.El'koninning fikricha, bolaning xohishi bilan bu xohishning harakatda ifodalanishi o'zaro moe tushmasligi, kattalar talabiga so'zeiz itoatkorlik uning istagini umumlashtirishga olib keladi, voyaga etganlar talabiga moe emasligi sababli shunchaki xohish, qat'iy shaxsiy xohish darajasiga o'sib o'tadi. Odatda "Men xohlayman", "O'zim bajaraman" kabi mustaqillikka intilish harakatlari xohishning kuchayishida o'z ifodasini topadi. Ana shu tariqa bola psixikasida xohishlarning o'zaro uzviy bog'lanishi, motchvlar va ularning kurashi yuzaga kela boshlaydi.

K.M.Gurevich 3-4 yoshli bolalarda motivlarning birlamchi tobeligi va dastlabki irodaviy harakatning paydo bo'lishini tadqiq qilgan. Tadqiqotchi bolaningoldiga jimjimador o'yinchoqni shish uchun avval o'zi yoqgirmagan harakatni bajarish topshirig'ini ko'ygan. Buning uchun to'rt qismli tajriba ishi amalga oshirilgan. Olingan ma'lumotlardan ko'rinadiki: a) maktabgacha yosh davrida ezgu orzular asosida harakat qilish imkoniyati tug'iladi; b) mazkur orzularning sabablari o'zaro tobeligi (bog'liqligi) bevosita sabablarga Karaganda ertaroq paydo bo'ladi; v) bevosita idrok qilinadigan narsalarga aloqador xohishni bajarishga qaraganda, narsaning o'ziga aloqador xohishni bajarishni muayyan muddatga kechiktirish osonroqdir.

SHunday qilib, xohish-istakka tobe bo'lmaslik holatidan unga nisbatan dastlabki intilish, xayrixohlik tuyg'usining vujudga kelishi aynan maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Buning zahirida bolaning mayli, niyati, orzusi, istagi, tilagi va xohishining mazmuni hamda xususiyatidagi keskin o'zgarishlar yotadi.

D.B.El'koninning ta'kidlashicha, mazkur o'zgarishlar bevosita idrok qilinadigan buyumlarga qaratilgan xohishning mantiqan mavhumroq buyumlarga yo'naltirilgan xohishga aylanishidir. Buning asosiy sabablari, bir tomondan, bolada oddiy umumlashtirish uquvining paydo bo'lishi hisoblansa, ikkinchidan, unda nutq faoliyatining jadal suryutlar bilan rivojlanishidir. SHundan so'nguning faoliyati jozibador, maftunkor, jimjimador, yaltiroq narsalarnpng tashqi alomatlariga va ularni bevosita egalla1pga aloqador bo'lmay, balki mazkur narsalarning timsoli, tasavvur obrazlari, kelgusida shularning hammasini o'zlashtirish istagi

asosiga quriladi. Bolaning orzu-istagi doirasidagi hali foyda-lanilmagan yangi, yashirin, ammo ro'yobga chikdtsigan imkoniyatlar uning kattalar bilan munosabatida, muomalasida, muloqotida, o'zining shaxsiy faoliyatida, his-tuyg'usining mazmuni va rivojlanishidagi keskin, muhim o'zgarishlar uchun zarur shart-sharoitlar sifatida xizmat qiladi. Undagi tasavvur bilan uzviy bog'liqhis-tuyg'ular xohishni qondirishda oldindan taajjublanish jaraeniga keng istiqbollar yaratadi. Boladaga mavjud his-tuyg'ular xohishni qondirishni bevosita aks ettirish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki kelgusida amalga oshirish mo'ljallangan

faoliyatning ahamiyatini ham o'zida mujassamlantiradi. SHuning uchun bolaning quvonchi bilan qayg'usi daf'atan qanday maqsadni ko'zlashga (amalga oshirishga) yo'nalganida emas, balki qaysi faoliyatni (ishni) rejalashtirgani bilan uzviy bog'liqdir.

Bolaning xohish va istagidagi ayrim o'zgarishlar, ularning tasavvurlar bilan birlashuvi maktabgacha yoshdagi sub'ektlarda faoliyatning yangi ko'rinishlari (rolli o'yinlar, ijodiy, tasviriy va konstruktiv faoliyat, sodda mehnat faoliyati) keng ko'lamda rivojlanishiga kulay imkoniyat yaratuechi shart-sharoit hisoblanadi. Bola o'zining faoliyatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tasavvur obrazlaridan amaliy foydalanish bilan chegaralanib qolmay, ularga nisbatan o'zining shaxsiy emotsional munosabatini ham bildiradi. Bu hol ko'pincha ularning ijodiy o'yinlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijodiy o'yinlarda bolaning kattalar faoliyati haqidagi, ularning o'zaro munosabati to'g'risidagi tasavvuri aks etadi, u o'zini kattalar bilan birga harakat qi-layotgandek his etadi, hatto voqelikning bevosita qatnashchisi vazifasini o'taydi.

Harakatga undovchi xohish-istak bolaning tasavvuri bilan uzviy bog'lanib, shuningdek, bevosita idrok qilish mumkin bo'lgan vaziyat bilan aloqaga kirishib, yangidan yangi xohish-istaklarni keltirib chiqaradi. Hatto, bolaning o'zi uncha qiziqmaydigan faoliyatga ham undashi yoki tanish faoliyatga yangicha shakl va mazmun berib uni bajarishga yo'naltirishi mumkin. Psixologik manbalardan ma'lumki, mazkur yoshdagi bolalarni o'zlari xoxdamaydigan zerikarli faoliyatga (chunonchi, yozishga, raem chizishga, mehnatga, harakatli o'yinga) majbur qilish mumkin emas. Ular o'zlari xohlamagan mashgulotlarda juda tez charchaydilar. SHunday mashgulotlarga amaliy jihatdan yondashib, yaqqollik alotlatlari kiritilsa, bolalar ishta astoydil, butun vujudlari bilan kirishibketadi. Natijadaularda shu mashg'ulotga ijodiy munosabat vujudga keladi.

Mazkur yosh davridagi bolalarning kattalar bilan munosabatga kirishuviningeng muhim xususiyatlaridan biri — ularning xohmsh-istaklarini boshqarish imkoniyati mavjudligidir. Ularni kattalarningezgu niyatiga ko'niktirish, ota-onalar va murabbiylar mayliga bo'ysundirish mumkinligidir. Ularning boshqa

yosh davrlaridagi bolalardan farqi ularda nisbatan xotirjam, barqarorroq his-tuyg'ular mavjudligi, ularning affektiv holatlardan uzoqroqlik, nizolarga kam berilishidir. Bunday bolalarda affektiv (jazavali) holat yuz berishi mumkin, lekin u vaqtinchalik bo'lib, yaqqol harakat bilan emas, balki tasavvur obrazlari dinamikasi bilan bog'liqholda yuzaga keladi.

Bevosita idrok qilinmaydigan holatlarga nisbatan his-tuyg'u, murakkab ichki tugyon va kechinmalarning paydo bo'lishi, keyinchalik emotsional o'sish uchun eng kulay shart-sharoitlar yaratadi. L.S.Vi-gotskiyning ta'kidlashicha, bola o'yin faoliyatida bemor singari yiglaydi, o'yinning ishtirokchisi sifatida kuvnaydi. SHuninguchun uning kechinmalari bemor to'g'risidagi tasavvur obrazlarining majmuasi bilan, ularning nisbatan rang-barangligi bilan aniqlanadi. Bola tanlagan rol' undagi mavjud kechinmalarning amaliy ifodasi kabi gavdalanadi. Ertaklar tinglashda bolada qahramonlar to'g'risidagi dastlabki kechinmalar paydo bo'ladi, unga emotsional ta'sir etish imkoniyati tug'iladi, kechinmalarni aks ettirish esa tasavvur doirasida vujudga keladi. Masalan: doktor — davolaydi, shofyor — haydaydi, sotuvchi — mol sotadi, uchuvchi — samolyotni boshqaradi, o'qituvchi — bolalarga bilim beradi va hokazo.

D.B.El'konits, E.A.Arkin, A.V.Zaporojets va boshqatarning isbotlashicha, mazkur shart-sharoitlar bolada kattalar hayotida faol ishtirok etish tuyg'usi va istagini vujudga keltiradi. Bu holda bolaning faoliyati kattalar faoliyatidan farqlanadi, uning hayot sharoiti kengayadi, shaxslararo munosabat va shaxsiy munosa-batlarning xususiyati oydinlashadi, unda voyaga etganlarning kundalik ishlarida faol qatnashish xohish-istagi kuchayadi.

Uch yoshli bolalarning psixologik xususiyatlari. Uch yoshda harakatni muvofiqlashtirish jarayonining takomillashuvi bolaga yugurganida, bir joyda tikturganida muvozanatni saqlash imkonini yaratadi. Buning natijasida bola mustaqil holda turli harakatlarni amatga oshira boshlaydi. Jismokiy jihatdan mustakillikka erishish

bolada erkin, kattalarning na-zoratisiz, o'z holicha qandaydir ishlarni bajarish, umuman mikro va makro muhitda shaxe sifatida yashash istagini tug'-diradi.

Xususan bolada ikkinchi signallar sistemasining paydo bo'lishi mazkur davr uchun muhim ahamiyat kasb etib, u eng kulay (senzitiv) o'sish bosqichi vazifasini o'taydi. Ikkinchi signallar sistemasining vujudga kelishi nutq va nutq faoliyatining o'sishi bilan bevosita aloqador bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Nutq jarayonining vujudga kelishi psixofiziologiyaning shartli reflekslar qonunlari ta'sirining mahsuli (hosilasi) sifatida sodir bo'ladi. Bolada

nutq reflekslari kattalarga taqlid qilish asosida yoki ularning kichkintoylar bilan uzluksiz muloqotga kirishuvi orqali hosil bo'ladi hamda ota-onalar va tarbiyachilarning so'z va atamalarni to'g'ri tapaffuz qilishni o'rgatishlari oqibatida jadal sur'atlar bilan takomillashadi.

YUqoridagi umumiy xulosalar asosida aytish mumkinki, uch yoshgacha davr nutqva nutqfaoliyatini eng oqilona namoyon qilish va to'g'ri, maqsadga muvofiq rivojlantirish bosqichi hisoblanadi. Binobarin, xdr bir yosh davrining o'ziga xos kulay o'sish pallalari, imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu narsa umumiy psixologik qonuniyatlarga suyangan holda talqin etiladi, shu bilan birga etakchi faoliyatning roli inobatga olinadi.

Bolaning tik yurishga odatlanishi, fazoviy qonuniyatlar, o'ziga xoslik, borlikdagi mavjudotlarni to'g'ri idrok kilish kabilar unda turli psixologik sifatlarni shakllantiradi, shuningdek, mutlaqo yangi shaxe xususiyatlarni vujudga keltiradi. Unda harakat shakllariga nisbatan sinchkovlik uquvi ko'proq usadi, vaqtini tasavvur qilish, vakt o'lchovlariga qiziqish tuyg'usi uyg'onadi. O'yin faoliyatida, tengdoshlari va kattalar bilan bevosnta muloqotga kirishishda vaqgni, fazoni va harakatni idrok qilish malakasi takomillashib boradi, mazkur psixologik kategoriyalar sifat jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarila boshlaydi.

Mazkur davrda nutqmazmunliroq, nugqfaoliyati esa grammatik, morfologik va sintaksistik nuqtai nazardan to'g'ri tuzilishga ega bo'la boradi, bolaning bu boradagi faolligi mislsiz darajada o'zgaradi. Atoqli psixologlar va o'zimizning kuzatishlarimizga qaraganda, uch yoshli bola soat sayin bir nechtdan (ona tili yoki be gona tilga doyr) so'zlarni o'zlashtiradi va o'zining nutq boyligiga aylantiradi. Nutq faoliyatining rivoji o'zgalar nutqini oqilona idrok qilish va tushunish

imkonini yaratadi, shaxslararo muomala ko'lamini yanada kengaytiradi.

SHunga o'xshash o'zgarishlar bola atrof-muhit to'g'risidagi ma'lumotlarni, axborotlarni, ilmiy bilimlar va ijtimoiy ko'nikmalarni egallashi uchun puxta zamin hozirlaydi. Natijada uch yoshlilar psixikasi yangiliklarni aks ettirish va ulardan ta'sirlanishdek murakkab funktsiyani bajara boshlaydi. SHular sababli bu yoshdagi bolalar o'zining ko'rganlarini, eshitganlarini tez idrok qiladilar va eslab qoladilar, hatto ularni tushunishga intiladilar, ular o'z bilimdonliklarini namoyish etishga, o'zlarini shaxe sifatida ko'rsatishga harakat qiladilar. O'zining kattalar orasidagi o'rnini topish istagi, hissi "Men davri"ni vujudga keltiradi. Balaning yangi ehtiyoj va intilishlari kattalar tomonidan g'ayritabiiy qabul qilinishi ularo'rtasida "anglashilmovchilik"ni keltirib chiqaradi. Unda kattalarning ko'rsatmasi, tavsiyasi, iltimosi, buyrug'i va tazyiqiga qarshilik ko'rsatish tuyg'usi vujudga keladi. SHu tariqa shaxslararo munosabatda ziddiyatlar, ichki nizolar, psixologik inqiroz namoyon bo'ladi. Bularning barchasi "Men davri"ning hosilasi bo'lib, bola shaxe sifatida shaklla-nayotganidan dalolat beradi. Inqirozning sabablari har xildir.

Inqiroz davrida bolaning kattalarga qarshilik ko'rsatishi ham turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ular o'tkinchi psixologik holat va hodisaga o'xshaydi. Lekin oila va bog'chada qiyinchiliklarni engish jarayonida bolaning shaxeiga uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri va oqilona yondashish uni inqirozdan ruhan mutlaqo sog'lom olib chiqish imkonini yaratadi. Quyida ana shu qarshiliklarning ayrim ko'rinishlari haqida qisqacha to'xtalamiz.

Ko'pchilik psixologlarning tadqiqotlaridan va o'zimizning kuzatishlarimizdan ma'lumki, bolalar mazkur inqiroz davrida bir necha ko'rinishdagi qaysarlik yoshini bosib o'tadilar.

Ana shu ko'rinishlarning bittasi biz nazarda tutgan davrga, ya'ni bolaning 3 yoshiga to'g'ri keladi. SHu davrda uning ruhiy dunyosida sifat va miqdor jihatdan turli o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar uning olamni o'zicha kashf qilayotganiga, psixikasi ma'lumot va axborotlar bilan soat sayin bosib borayotganiga bog'liqtsir. Ayni shu yoshda bolada irodasiga ishonch hissi tug'iladi, u o'zligini anglay boshlaydi. O'zligini anglash qarama-qarshi-liklarni,

ziddiyatlarni english bilan amalga oshadi.

Mazkur yoshdagi bola ba'zan o'ziga aytilgan so'zning mohiyatini tushunmasligi, anglab etmasligi, goho o'yinga haddan tashqari berilib ketib, kattalarning ovozi eshitmay qolishi mumkin. Bunday paytda bolada tashqi ta'sirga yoki qo'zg'atuvchiga e'tibor berish qobiliyati etishmasligi, bunga uning ko'tarinki yoki g'oyat tushkin kayfiyati halaqit berishi mumkin. Ba'zay bola o'z o'ylari va ichki kechinmalari bilan bandligi sababli uning tashqi ta'sirga javob qaytarishi biroz kechikishi ham mumkin. Ana shu jarayonga o'zgalarning psixologik qonuniyatga rioya qilmay qo'pollik bilan aralashuvi yoq'mtoy, odobli bolalarni xam darrov jahli qo'zg'aydigan, gap qo'tara olmaydigan, noziktabiatli shaxslarga aylantirib qo'yishi mumkin. Bunda kattalarning muloqotdagi qo'polliги bolada qaysarlikning belgilarini yaqqol namoyon eta boshlaydi. U har qanday taklifni, buyruqni, hatto, iltimosni ham rad qiladi, o'ziga berilgan barcha savollarga bir maromda "yo'q", "kerakmas", "bermayman", "bilmayman" deb javob qaytaraveradi. Kattalar bilan bola o'rtasidagi munosabatning buzilishi tufayli uning xatti-harakatida o'jarlik illati paydo bo'ladi. Buning asosiy sababi bolada o'zining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulariga bog'liq harakatlarni mustaqil bajarish istagi tug'ilishi, "men" bilan bog'liq butunlay yangi nuqtai nazarning vujudga kelishidir.

Mazkur davrni inson shaxeini shakllantirishda en'g murakkab davr desak, xato qilmagan bo'lamiz. Bu davrda bolaning irodasi, irodaviy sifati takomillasha boshlaydi,

shaxsning murakkab fazilatlari xarakter xislatlari barqa-rorlashadi. Bola o'zligini anglashining tashqi va ichki belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi. "O'zim" bilan bog'liq ezgu niyat mustaqillikka intilish tuyg'usini vujudga keltiradi, binobarin, ularning ta'siri tufayli unda o'z xulq-atvori, "yurish-turishi" bilan kattalarning maqtovi va olqishini eshitish ishtiyoqi tug'iladi. SHaxsning xulqini baholash keyinchalik o'zini o'zi baholash darajasiga etadi.

Katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, tarbiyachilar bunday hollarda o'zlarini osoyishta tutishlari, sharoitga qarab bolaga biroz yon berishlari, ba'zan ularga aytganlarini qildirishlari, kerakli paytlarda masalani ochiq qildirishlari lozim,

chunki shaxslararo munosabatning ba'zan muammoligicha qolishi ham maqsadga muvofikdir. YAxshisi asabiylik vaziyatida bolaning diqqatini boshqa narsaga (ob'ektga) jalb qilish, uni mushkul holatdan chalg'itish ma'qul. SHaxsiy kuzatishlarimizda ayon bo'ldiki, mazkur holat bolaning ruhiy dunyosiga qattiq ta'sir qiladi, u o'zining nojo'ya qiliqlari kattalarga aslo yoqmayotganini anglaydi, ichidan chuqur iztirobga tushadi.

SHu davrda organizmning tez sur'atlar bilan o'sishi oqibatida bola sho'x, serg'ayrat, tinib-tinchimas, hamma narsaga qiziquvchan, harakatchan bo'lib qoladi. Undagi bu o'zgarishlar tabiiy ekanligini kattalar yaxshi bilishlari, o'zlarining kichkintoylarga muomala va munosabatlarini tubdan o'zgartirishlari lozim. Binobarin, bola oldiga qo'yiladigan talablar muayyan shart va sharoitga muvofiq

bo'lishi kerak. Amaliy faoliyatda jismoniy va ruhiy o'zgarishlarni hisobga olmaslik kattalar bilan bolalarning o'zaro munosabatlarida qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi; bola ota-onalar va tarbiyachi-larning gapiga quloq solmaydigan, topshirikdarni bajarmaydigan, qo'rs, hech narsaga ko'nmaydigan bo'lib qoladi. Bunday xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi bosh sabab bolalarning mustaqillikka intilishini kattalar tan olmasligidir. SHuning uchun ular goho kattalardan o'rinli hafa bo'ladilar, nizoning sababini to'g'ri payqaydilar.

Ayrim kishilar bolaga topshiriq beradilaru, lekin uning qay darajada bajarilishi bilan qnziqmaydilar, bola qanday yutuqqa erishganiga e'tibor bermaydilar. Bola o'ziga kattalarning mensimay, hurmatsizlik bilan munosabatda bo'layotganini darrov sezadi. SHaxslararo munosabatda vujudga kelgan anglashilmovchilik va ginaxonlik ana shu holatga oqilona baho berilgunicha davom etadi.

Erkalanish bilan vujudga keladigan o'jarlik ham uch yoshlilar ruhiy dunyosida ko'p uchraydi. Bolaga me'yordan ziyod mehr-muhabbat qo'yish, uni haddan tashqari erkalatish, har qanday xohishini qondiraverish, talab va extiyojini so'zsiz ado etish ham unda erkalik vao'jarlikni paydo qiladi. SHuningdek, bolaning xulq-atvorini, qilgan ishini maqtayverish, uni o'rinsiz taltaytirish yoki unga nisbatan befarq munosabatda bo'lish ham o'jarlikni keltirib chiqaradi. Ujarlik paydo bo'lgan bolaga muomalada uni behuda erka-latmaslik, maktamaslik, uning barcha

orzu-istaklarini qondir-maslik kerak. Xoh oilada, xoh bog'chada hammaga bir xil bir maromda e'tibor berish, bolani o'z holiga tashlab qo'ymaslik o'jarlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Bolalarda vujudga keladigan illatlar — o'jarlik, qiyqlik, qaysarlik va hokazolarning sababini u kamol topayotgan muhitdan, unga ko'rsatilayotgan tarbiyaviy ta'sirdan, sharoitdan, shaxsni shakllantirish jarayonidagi kamchiliklardan qidirish lozim. Eng muhimi, ota-onalar ham, tarbiyachilar ham boladagi salbiy ruhiy holato'tkinchi ekanini bilishlari, uning sabablarini haqqoniy aniklashlari, u bilan umumiytil topishlari, unga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishlari zarur.

Hayot va faoliyatda katgalar bolaning shaxsini hurmat qilishlari, uning ehtiyojlari bilan hisoblashishlari, his-tuyg'usini boshqarish imkoniyatlarini aniqlashlari kerak. Bolani sevish, uning yosh xususiyatlarini hisobga olish, qiziqishlariga e'tibor berish — o'jarlikning oldini olishning muhim shartidir.

Uch yoshli bola jamoat joylarida, ko'pchilik orasida o'zini qay tarzda tutishi kerakligini bilmaydi. SHuning uchun buni kattalar tushuntirishlari, amaliy ko'rsatmalar berishlari shart. Biroq bu ish-harakat bilan uzviy bog'lanmasa, ko'zlangan natijaga erishish mumkin emas. O'yin faoliyatida bola shaxsida xulq va odob malakalari asta-sekin shakllantiriladi.

Bolaning shaxsi tarkib topishida kattalarning axloqiy ibрати alohida ahamiyatga molikdir. Lekin yuksak fazilatlarni, insoniy xislatlarni shakllantirishda shuning o'zigina etarli emas, chunki bola o'zicha faol harakat qilmasa, hamkorlikdash faoliyatda iiggarok etmasa, unda hech mahal xulq-atvor ko'nikmalari hosil bo'lmaydi. Ma'lumki, o'yin faoliyatida va muloqotlarda bolaning shaxsiy fazilatlar'i hamda xarakter xislatlari uning nutqiga bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Bolaning nutq faoliyati qanchalik ravon va boy bo'lsa, u ona tilining durdonalaridan unumli foydalana olsa, uning o'zaro fikr almashishi ham shunchalik qulay va oson amalga oshadi.

Tafakkurning bolalar rivojlanishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari

Rolli o'yin — maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalariva ishlarini amalda bevosita "bajaradilar". Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg'usi, o'zaro muomala va muloqotlarining xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof-muhitga munosabatini yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi va mohiyati hamda mazmuni jihatdan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

SHunday qitib, psixologik adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi; 2) bolalar rolli o'yinda atrofdagi voqelikningengtashqi ifodali, jo'shqin his-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar; 3) rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tatbiq qiladi; 4) katta-larning hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa xam, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Tafakkurning bolalarda rivojlanishi

Hozir biz yashab turgan zamonning eng ko'zga ko'rinib turgan belgisi ilmiy texnika revolyutsiyasi ekan, bu revolyutsiya odamlardan barcha psixik protsesslarning, birinchi navbatda, tafakkurning rivojlangan bo'lishini

talab qiladi.

Bola tug'ilishdanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Tafakkur bolaning o'sib, bilim ,va tajribalarining ortib borishi jarayonida rivojlanadi. Bola

(chaqaloq) dastlab tashqi olamni va undagi narsalarni sezish, idrok qilish orqaligina biladi. Bunday bilish bolaning ana shu narsalar bilan bo'lgan aktiv faoliyati davomida tobora takomillashib bora-di. Kichik yoshdagi bolalar atroflaridagi narsalar bilan qanchalik ko'p munosabatda bo'lsalar bu narsalar o'rtasidagi o'xshashlik tomonlarni shunchalik ko'proq payqay boshlaydilar. Keyinchalik bolalar o'xshash narsalarni umumlashtira boshlaydilar. Masalan, 6—7 oylik bola uyda yolg'iz qolgan paytida stol oldiga emaklab kelib, dasturxonni tortib o'ziga kerakli narsalarni olishga muvaffaq bo'lar ekan, xuddi shunday harakat yo'li bilan karavotning ustidagi narsalarni ham olishga harakat qiladi. U dasturxonni tortgani kabi choyshab yoki adyolni tortib kravot ustidagi narsalarni olishga urinib ko'radi.

YAsla yoshidagi bolalarning tafakkuri o'z-o'zicha, ya'ni stixiyali ravishda emas, balki katta odamlar-ning rahbarligida rivojlana boshlaydi. Katta odamlar bolalarning shu paytgacha orttirgan bilimlariga asoslanib, ularning o'zlari mustaqil egallay olmaydigan tushuncha va bilimlarni o'zlashtirib olishlarida yordamlashadilar. Ana shu tariqa bolalar o'zlarining individual faoliyatlari orqali bilish mumkin bo'lgan ayrim narsalarni va ayrim tushunchalarnigina emas, balki butun insoniyat tomonidan yaratilgan tushuncha-larni hamda mantiqiy fikr qilish formalarini ham egallab ola boshlaydilar.

Bolalarda tafakkur bir yoshga to'lib, ikki yoshga qadam qo'ygan davrdan boshlab namoyon bo'la boshlaydi, Ana shu davr mobaynida, birinchidan bolalar anchagi-na turmush tajribasiga ega bo'la boshlaydilar, ikkin-chidan tili chiqa. boshlaydi. Bolalar bir yoshdan oshgach o'zlariga yaqin narsalarning nima uchun kerakligini tushunadigan bo'lib qoladilar (masalan, uydagi idish-tovoqlarning, piyola va qoshiqlarning nimaga kerakligini bilib oladilar).

Ikki yoshli bolalar tafakkurining eng ko'zga tash-lanib turadigan xususiyati shundan iboratki, ular ayni shu choqda ko'rib, idrok qilib turgan narsalari haqida tafakkur qiladilar. Tafakkurning asosiy protsesslari, ya'ni analiz, sintez, umumlashtirish bolalarning nar* salar bilan bo'lgan amaliy faoliyatlari jarayonida sodir bo'ladi. Ana shuning uchun ularning tafakkurlari bevosita harakatlari bilan

bog'liq bo'ladi, tafakkur harakatlarida namoyon bo'ladi.

YAsli yoshidagi bolalar idrok qilayotgan narsalari-ning ichki va eng muhim xususiyatlarini hali aks zttira olmaydilar. SHu sababli ular idrok qilayotgan narsalarni- umumlashtirganlarida bu narsalarning ko'zga tashlanib turadigan tashki belgilariga, xususiyatlari-gagina asoslanadilar. Masalan, bir yarim yoshli bola olmani, koptokni, yog'ochdan qilingan yumaloq sharni umumlashtirib, ularning hammasini olma deb ataydi.

SHunday qilib, kichik yoshdagi bolalarda tafakkur ularning turmush tajribalarining orta borishi, turli xil narsalarga doyr bilim va tushunchalarining ko'pa-yishi hamda nutqning rivojlanishi protsessida takom-millashib boradi.

Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining anchagina ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nut-qining nisbatan yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning juda ko'p erkin va mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga zga bo'lishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining mustaqil harakat-lari davomida atroflaridagi turli xil narsalar bilan bevosita taqqoslash, analiz qilish va, nihoyat, umumlashtirish kabi fikr qilish protsesslarini vujudga keltiradi va takomillashtiradi.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida uning erkin harakat qilish maydoni yasli yoshidagi davrga nisbatan juda ham kengayib ketadi. Bu esa tafakkurning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Bog'cha yoshidagi bolalar o'z tajribalarida ancha narsalarni bilib olganlaridan so'ng narsalarning ichki xususiyatlari bilan ham qiziqqa boshlaydilar. SHu sababli ularda juda ko'p savollar (bu nima? nega bunaqa? kim qil-gan? qaerdan kelgan? nima qiladi? kabi) paydo bo'la-di. Bu, shubhasiz, tafakkurninng aktiv va jadal rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda har xil sohalarga doyr savollarning tug'ilishi ular tafakkurining aktivla-shayotganligidan darak beradi. SHuning uchun bolalar-ning savollariga doimo ahamiyat bilan qarash kerak. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki katta odamlar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qi«

ziquvchanlik, sinchkovlik susaya boshlaydi. Lekin bog'cha yoshidagi bolalarning hamma savollariga javob berish qiyin, chunki ular o'zlari hali mutlaqo tushunmaydigan narsalar va hodisalar haqida ham savol beraveradi-lar. Tarbiyachi bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishi va tushuntirishi lozim.

Odatda, har qanday tafakkur protsessi biron narsa-ga tushuna olmaslik, biron narsadan taajjublanish. hayron qrlish natijasida hosil bo'ladi. Juda ko'p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar bolalar ortiqcharog' savol bersalar, ularni «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding», deb jerkib tash-laydilar. Bola bir necha marta ana shunday pand egan-dan so'ng, kattalarga savol bermaydigan, ayrim murak-kab narsalarni o'z bilgicha yoki afsonalardagi kabi xato tushunadigan bo'lib qoladi. Masalan, 7 yoshli kat-ga grupp bolasi «yomg'ir qaerdan yog'adi?» degan savol berdi. Bu bolaga yomg'irning yuzaga kelishi juda sodda va tushunarli qilib gapirib berildi (hatto sovuq oynaga issiq par bilan ta'sir qilganda suv zarracha-larining yuzaga kelishi misol qilib ko'rsatildi). Bola bir oz qarab turib, yo'q unaqa emas deb javob berdi. Bo'lmasa, qani sen tushuntirib ber, deb so'ral-di. SHunda bola quyidagicha tushuntirib berdi: «YOmg'ir osmonda yashaydi, uning uyi bulutlardan ham balandda. Bulutlar ochilib ketgan paytda yomg'ir yiqilib keta-di...» deb tushuntirdi. Bolaning ana shunday afsona-viy tushunchasidan voz kechib, to'g'ri, ilmiy tushunchani yuzaga keltirguncha ancha vaqt ketadi. Ana shuning uchun bog'cha yoshidagi, hali turmush tajribasi oz bo'lgan bo-lalarga tabiat hodisalarini bunday yolg'on afsonaviy tarzda tushuntirish yaramaydi.

Bolalarning beradigan savollarini juda qiziq bo'lishiga bir necha sabablar bordir. Birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni qanday bo'lsa, shundayligicha, ya'ni yaxlit holda, xuddi rasmdagidek aks ettiradilar, ikkinchidan, ularda katta odamlardagidek idrok qilayotgan narsa va hodisalarni chuqur analiz va sintez qilish xusu-siyati hali o'smagan bo'ladi, uchinchidan, ularda turli tabiat va jamiyat hodisalariga doyr ilmiy tushunchalar hali tarkib topmagan va nihoyat, to'rtinchidan, ularning turmush tajribalari juda oz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning beradigan savollaridan ular tafakkuri-ning

konkret obrazli xarakterga ega ekanligi ham ko'ri-nib turadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar quyidagi savollar berishlari mumkin: Bulutlar nega yuradi? Osmon kattami, er kattami? Yulduzlar nechta? Osmondagi yulduzlar nima uchun kunduzi ko'rinmaydi? Daraxtlar nima eb usadi? Qorbobo odammi? Hozir qorbobo qaer-da? Nima uchun qorbobo ezda kelmaydi? Elektr toki qaerdan keladi? Nega simda olov ko'rinmaydi? Ayrim bolalar haddan tashqari ko'p savol beradilar, boshqa bir bolalar esa deyarli hech savol berolmaydilar. Bolalarning juda ko'plab savollar beoishlari ijobiy xarakterga ega bo'lib, bu ularning qiziquvchanligi, aktivligi va mustaqilligidan darak beradi. Odatda, juda passiv va tortinchoq bolalar savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'lotlar va ekskursiyalar vaqtida tarbiyachining o'zi savol berishi, shu bilan ularni aktivlashtirib borishi lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalarning tajribalari orta borgan sari narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lilik hamda ayrim tabiiy sabablarni tushuna boshlaydilar. Masalan, katta gruppada bolalarining gaplariga diqqat qilsak, ular shunday hodisalar haqida mulohaza yurgizishayotganlarining guvohi bo'lamiz. «Temir og'ir narsa bo'lgani uchun suvda cho'kadi, yog'och engil, shuning uchun u oqadi», «ichi bo'sh banka engil, shuning uchun u cho'kmaydi», «urug'ni' erga eksa, ko'karib chiqadi» shu

kabilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkur (fikir yuritish) jarayonida ayni shu chog'da idrok qilayotgan narsalargina emas, balki ilgari idrok qilgan narsalariga ham tayana oladilar. Masalan, bolaga ilgaridan ma'lum bo'lgan biron topshiriq yoki savol berilsa, u uz tasavvuriga asoslanib, qiynalmay, darhol javob qaytaradi. Chunki 6 yoshli bir boladan «yong'oq suvda cho'kadimi yoki oqadimi?» deb so'ralganda, u «oqadi» deb javob bergan. Bolaning to'g'ri javob berganligiga sabab shundaki, u o'z tajribasida yong'oqni suvga tashlab kurgan.. Ana shu tarzda bog'cha yoshidagi bolalarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning eng sodda formalari yuzaga kela boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular

tafakkurining hamon konkret obrazli bo'lishidir. Ular o'zlarining mulohaza-larida abstrakt tushunchalarga emas, balki konkret faktlarga asoslanadilar. SHuning uchun ular abstrakt tusda berilgan oddiy vazifalarni hal qila olmaydi-lar. Biroq, bog'cha yoshidagi bolalarda, xususan katta gruppada bolalarida, ayrim narsa va hodisalarning muhim belgilariga qarab, umumlashtirish qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Masalan, katta gruppada bolalari olma, o'rik, nok, olcha, olxo'ri, uzum, anor, behi va an-jirlarning rasmlarini to'plab, meva deb ataydilar. Ular endi meva degan umumiy tushunchadan o'z nutqlarida erkin foydalana oladigan bo'ladilar. Bog'cha bolalari xilma-xil rasimli lotolar bilan o'ynash protsessida" ana shunday umumlashtirishga o'rgana boshlaydilar. Bunday o'yinlarda ba'zan tarbiyachining aralashuvi va bolalarga umumlashtirish yuzasidan (masalan, hayvon-lar, hasharotlar, gullar, qushlar, o'yinchoqlar va hokazolar haqida.) turli vazifalar berishi yaxshi natijalarga olib keladi. Bolalar bu narsalarning eng muhim belgilariga qarab ularni gruppalariga ajratadilar. Biz malakaviy ish maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida Xalq talimi bo'limiga qarashli "Nilufar" nomli N6 son M.T.M.da bo'ldik va u erda tarbiyalanayotgan bolalarning faoliyatlarini kuzatdik, tafakkurini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida, turli mazmunda savol-javob va suhbatlar uyushtirdik.

maktabgacha yoshidagi bolalarni diqqati, xotira va tafakkur jarayonlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash hamda bu jarayonlarning o'rganish maqsadida quyidagi geometrik figuralar testidan foydalanik.

1-topshiriq. «Bo'sh kataklarga o'xshashini chizish».


Maqsad. Bolaning namunaga qarab ishlash, predmetni aniq ko'chira olish malakasini, ixtiyoriy diqqatini, ko'rish idrokini, fazoviy tasavvurini, mayda qo'l motorikasining rivojlanganlik darajasini aniqlash.

Ko'rsatma. Har bir shaklning yonida bo'sh katakcha qoldirilgan, shu katakchaga bola xuddi shunday shaklni chi-zib berishi kerak. Bolaga quyidagicha topshiriq beriladi: «Shakllar yoniga, bo'sh katakchalar ichiga xuddi shunday shakllarni chizib ber» (3-rasm).

Baholash tartibi. 3 ball — har bir namuna bo'yicha to'g'ri, kattaligi saqlangan

holda chizilgan. Bu bolaning fazoviy idroki, ixtiyoriy diqqati, mayda qo'l motorikasi, ko'-ruv harakat koordinatsiyasi yaxshi rivojlanganligini bildiradi.

2 ball — har bir namuna bo'yicha to'g'ri, lekin mayda yoki katta hajmda chizilgan shakl — fazoviy idroki, ko'ruv harakat koordinatsiyasi yetarli darajada rivojlangan.




Bo'sh kataklarga o'xshashini chiz.

0—1 ball — berilgan namunalardan biriga mos, lekin mayda yoki katta hajmda, chiziqlar egri-bugri chizilgan. Demak, bolaning fazoviy idroki, ko'ruv harakat koordinatsiyasi, mayda qo'l motorikasining rivojlanganlik darajasi past.

2-topshiriq. «Gilamchalarni yamash».

Maqsad. Mantiqiy va tahliliy fikrlash jarayonining ke-chishi va samaradorligini aniqlash.

Ko'rsatma. Bola unga berilgan awal sodda, so'ng mu-rakkab vazifalar tartibi bo'yicha ishlaydi: «Bizning chiroyli gilamchalarimizning bir bo'lagi qirqib olingan. Yonidagi yamoqlarga qarang. Ularning qaysi bin bilan qirqib olingan joyni yamash mumkin» Bola qirqib olingan joyga mos «yamoq»ni topishi kerak (rasm).



rasm. Gilamchalarni yamash.

Baholash tartibi. Har bir to'g'ri bajarilgan vazifa uchun bir ball beriladi va

ballar umumlashtirilib, xulosalanadi.

6 ball — bolaning mantiqiy va tahliliy fikrlash jarayoni-ning kechishi va samaradorligi yuqori, ko'ruv idroki yaxshi rivojlangan.

5—4 ball — bolaning mantiqiy va tahliliy fikrlash ja-rayonining kechishi va samaradorligi me'yorida, ko'ruv id-rokining rivojlanishi o'rta darajada.

3 ball va undan kam — bolaning ko'ruv idroki, mantiqiy va tahliliy fikrlashining kechishi va samaradorligi yetarli darajada emas.

3-topshiriq. Mantiq va fikrlash tezligi, uning ko'lami.

Maqsad. Maktabda samarali ta'lim olishning eng muhim shartlaridan biri, bu — bolaning bilish faolligi va tafakkuri-ning rivojlanganligidir. Mazkur usul sabab, oqibat bog'-lanishlari xususiyatlari va obyekt, hodisalar o'rtasidagi mu-nosabatlarni to'g'ri talqin etish malakasi, fikriy jarayonlar (analiz, sintez, qiyoslash, abstraksiyalashtirish, tashxislash), ularning kechish tezligini o'rganish uchun qo'llaniladi.

Ko'rsatma. Bolalarga savollar berilib, javoblari qayd qilib boriladi. Vazifa ikki ko'rinishda: verbal, noverbal tarzda beriladi. Bola verbal savollarga tez va oz vaqt ichidajavob berishi kerak.

Natijalami xulosalash:

Har bir to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.

9—8 ball — yuqori ko'rsatgich.

7—5 ball — o'rta ko'rsatgich.

5—0 ball — rivojlanish darajasi past.

Bog'cha yoshidagi bolalar uchun narsalarning eng muhim belgilari ularning nima uchun qo'llanishidir, CHunonchi, ularga “sigir qanday hayvon?” deb, savol berilsa, ular-“sigir sut beradigan hayvon” deb javob beradilar. Bog'cha yoshidagi bolalar har bir narsa-ning nima uchun kerakligini shu narsaning asosiy bel-gisi qilib oladilar. “Ot qanday hayvon?” deb savol berilsa, ular “ot minadigan hayvon” deb javob beradilar.

Ma'lumki, bog'cha yoshidagi bolalar juda qiziquvchan bo'ladilar. Ko'pgina narsalarni bilishga qurblari etmasa ham, atroflaridagi turli narsa va hodisalarning

mohiyati, paydo bo'lishi hamda sababiy bog'lanishlariga qiziqadilar. Ular hamma narsaning siridan xabardor bo'lgilari keladi. Bu ularning bilish prosesini bilan bog'liq bo'lgan intellektual qiziqishlaridir,

Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda turli didaktik va ta'limiy mashg'ulotlarning roli g'o

yat kattadir. Masalan, katta gruppada bolalar bilan o'tkaziladigan son-sanoq (hisoblash) mashg'ulotlari, nutqni o'stirish mashg'ulotlari ularda tafakkurning taqqoslash, analiz va sintez qilish xususiyatlarini o'stirishga yordam beradi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, bolalar ana shunday ta'limiy mashg'ulotlarda narsa va hodisalarni shunchaki passiv o'zlashtirib, faqat ularning nomlarini esda olib qolish bilan cheklansalar, tafakkur qilish qobiliyati yaxshi

rivojlanmaydi.

SHunday qilib, bog'cha yoshidagi davrda bolalarning tafakkuri jadal rivojlanadi va uning bundan keyingi o'sishi maktab yoshida, ya'ni sistemali ta'lim va tarbiya protsessida amalga oshiriladi.

Xulosa.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida amalga oshirgan tadqiqotlarimiz

natijalari quyidagi umumlashgan xulosalarni chiqarish

imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Jahon psixologlarining ko'rsatishiga qaraganda, yuqorida tahlil qilib chiqilgan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog'liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati — bu moddiy voqelikdagi muhim jihatlarini ajratib, mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. I.A.Karimov. "Barkamol avlod o'zbekiston taraqqiyotinig poydevori" T.1997.

2. I.A.Karimov. “Barkamol avlod orzusi” T.1999.
3. E.G.G’oziev. “Tafakkur psixologiyasi” T.1999.
4. Nishonova Z.T, Alimova G.K. “Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi” 2005
5. Gafarov A.Z., YUgay A.X. Pedagogik amaliyot. Toshkent, 2002.
6. Davletshin M.G., Tuychieva S.M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o’qituvchisi psixologiyasi. -Toshkent 1998.
8. SHcherbakova A.I.. YOsh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991.
9. E.G.G’oziev “Ontogenez psixologiyasi” Toshkent.2010.
10. Psixologiya. Kiskacha izoxli lugat. Toshkent, 1998
11. G’oziev E.G. Psixologiya. Toshkent, 1994.
12. E.G’oziev “Umumiy psixologiya”O’zb. Nashr.T. 2010.
13. Nemov R.S. Psixologiya. kniga 2. M., 2000
14. Zimnyaya I.A., Pedagogicheskaya psixologiya. M.: Logos. 2003, 384 s.
15. “Pedagogicheskaya psixologiya” Uchebnik/ Pod red. N.V.Klyuevoy.-M.: Vldos-Press. 2003.-400s.
16. Psixologiya i pedagogika. Pod redaktsiey A.A.Radugina. Izd.”TSentr”2003
17. Nemov R.S. Psixologiya obrazovaniya. Kniga 2. M.: “Vldos” 2003
18. Pronina E.N.,Lukashevich V.V. Psixologiya i pedagogika. Uch.dlya vuz. M.:”Elit” 2004
19. Radugina A.A., Psixologiya i pedagogika. M., 1999
20. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. m., 1991
- 21.Xalq ta’limi jurnali 2007yil N3

Internet bo’yicha:

www.psychology-online.net/docs/practicum1.html

www.pomorsu.ru/Departments/Social/ps/ped_ps.htm

www.elsu.ru/kvpp

www.my-shop.ru/shop/books/5330.html